

### O'qituvchi nimani o'ylaydi?

O'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar g'oldi. Yana dars taqsimoti boshlanadi. Qachon o'qituvchilarning to'liq bir stavkada ishlashini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjat qabul qilinadi? Kechagina kelgan mutaxassisga ham, oliy, birinchi, ikkinchi toifali o'qituvchiga ham bir xil dars soati beriladi.

4-bet

### O'zbekiston — Belarus:

### Ilm yo'lidagi hamkorlik

Yaqinda O'zbekiston—Belarus hamkorligi doirasida maqsadli malaka oshirish uchun tanlab olingan 100 nafar yosh olim chet ellik hamkorlar bilan tajriba almashish uchun Belarus Respublikasida bo'lib qaytdi.

5-bet

### "Gapda ravishlar soni nechta?.."

yoxud uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida ravish qanday o'qitilishi kerak?

Tilshunoslik fani paydo bo'lganidan hozirga qadar so'zlarni turkumlash masalasi mutaxassislarining e'tiborini jalb qilgan va bu borada hanzu munozaralar davom etib kelyapti.

8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 3-avgust, shanba № 60 (9229)

Xalq ziyolilari gazetasi



Xalqaro fan olimpiadalarida ham birinchimiz!

6-bet

## Yangi maktab — yangi imkoniyatlar

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!



◆ Poytaxtimizning Sergeli tumanida bugungi kunda yangi turarjoylar orasida jami 4 ta maktab qurilmoqda. Ushbu maktablar 4 qavatli, 1 680 o'ringa mo'ljallangan.

◆ Hozirda Toshkent moliya-iqtisodiyot kolleji 1 080 o'rinli binosida ham yangi umumta'lim maktabini tashkil etish ustida ish olib borilyapti.

◆ 2020-yilda esa Choshtepa hududida ham 960 o'rinli yangi ta'lim muassasasi barpo etilishi ko'zda tutilgan.

3-bet

Reklama va e'lon



### Moskva davlat pedagogika universiteti diplomini Toshkentda olish imkoniyatidan foydalaning!

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zida ijobiy an'analar va zamonaviy fan yutuqlarini mujassamlashtirgan respublikamizning yetakchi ta'lim muassasasidir.

Sizlarni universitetimizda Moskva davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan Rus tili va adabiyoti qo'shma fakultetida bakalavriat ta'lim yo'nalishi asosida o'qishga taklif qilamiz.

➔ Universitetga qabul qilingan talabalar 3+1 shaklida, ya'ni 3 yil Toshkentda, 1 yil esa Moskva shahridagi ko'hna va pedagogika sohasidagi eng nufuzli universitetda ta'lim oladilar.

O'qish yakunida talabalar Double Degree shaklidagi TDPU va Moskva davlat pedagogika universiteti diplomiga ega bo'ladilar. Agar siz xalqaro nufuzdagi diplom va mutaxassislikni egalashni istasangiz, universitetimizga murojaat qiling!

**Abituriyentlardan hujjatlar 2019-yil 25-iyuldan 10-avgustgacha qabul qilinadi.**

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Mo'ljal: Chilonzor metro bekati. Murojaat uchun telefon raqami: (98) 310-63-31, elektron sayt: [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)



## O'zbekiston va Belarus Prezidentlari telefon orqali muloqot qildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-avgust kuni Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

Shubhat avvalida davlatimiz rahbari Aleksandr Lukashenko va birodar Belarus xalqiga kuni kecha muvaffaqiyatli yakunlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Belarus Respublikasiga ilk rasmiy tashrifi davomida ko'rsatilgan mehmondo'stlik uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Prezidentlar O'zbekiston — Belarus sammiti ko'p qirrali ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, ularni aniq amaliy mazmun bilan boyitganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Xususan, Minsk shahrida bo'lib o'tgan Hududlararo forum va O'zbekiston milliy sanoat ko'rgazmasining samarali natijalari, ularning yakunida 300 million dollarga yaqin qiymatdagi eksport-import shartnomalari va yetakchi korxonalar kooperatsiyasi to'g'risidagi kelishuvlar imzolanganini yuksak baholandi.

Davlat rahbarlari ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasida faol almashinuvlarni davom ettirish muhimligini qayd etdilar.

Tashrif doirasida tashkil etilgan O'zbekiston madaniyati kunlari hamda Belarus poytaxtida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy byustining ochilishi xalqlarimiz o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muloqotda erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan hujjatlarni «yo'l xaritasi» asosida amalga oshirishga qaratilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va innovatsion sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, Belarus korxonalarining ilg'or texnologiyalari va ilmiy tajribasi asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shma loyihalarni va kooperatsiya dasturlarini ilgari surish xususida so'z bordi.

Muloqot so'ngida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoni o'zi uchun qulay fursatda mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelishni taklif etdi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish va do'stlik munosabatlarni mustahkamlash borasida intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

## Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-avgust kuni kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbir joriy yil 23-iyul kuni o'tgan yig'ilishning mantiqiy davomi bo'ldi. O'shanda sohadagi tizimli muammolar chuqur muhokama qilinib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi. Bu galgi yig'ilishda shu boradagi ishlar qanday tashkil etilayotgani yuzasidan mutasaddi vazirlik va tashkilot, hududlar rahbarlarining hisobotlari eshitildi. Tadbirkorlar tashabbuslarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolarni markaziy idoralar aralashuviga, joyida hal qilish mumkinligi ta'kidlandi.

Masalan, yer ajratish hamda infratuzilmaga ulanish bilan bog'liq masalalar hal etilsa, tadbirkorlarning aksariyat muammosi yechiladi. Lekin yer ajratish uchun xulosa beradigan sakkizta idora tomonidan hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlari asossiz ravishda oylab cho'zib yuborilmoqda.

Prezident mazkur tashkilotlarning ruxsat berishga oid funksiyasini muvofiqlashtirish, ulardagi ma'lumotlar bazasini integratsiyalash orqali bunday «ruxsat beruvchi» idoralar sonini qisqartirish, bu boradagi tartibni takomillashtirish zarurligini ta'kidlandi.

Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga yirik korxonalarining bo'sh turgan obyektlari negizida qo'shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish, ularni elektr, suv, gaz, yo'l va aloqa kommunikatsiyalari bilan ta'minlashga ketadigan xarajatlarning 65 foizini davlat budgetidan qoplash tartibini joriy qilish vazifasi qo'yildi.

23-iyulda bo'lib o'tgan yig'il-

ishda tadbirkorlar mulklarini kompensatsiya to'lamasdan buzish va yer maydonlarini olib qo'yishga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi belgilangan edi. Davlatimiz rahbari shu masalada Bosh vazir o'rinbosari rahbarligida Ishchi guruh tuzish, ular joylarga chiqqan holda tadbirkorlarga yetkazilgan zararni xatovdan o'tkazib, bu mablag'larni bozor qiymati asosida to'lab berish zarurligini ta'kidladi.

Joriy yil 5-avgustdan bu boradagi ishlarni qat'iy tartib bilan, uch bosqichda tashkil etish belgilandi. Birinchi bosqichda hududiy hokimliklar buzilishiga zarurat tug'ilgan joy bo'yicha materiallar to'plamini Vazirlar Mahkamasiga kiritadi. Ikkinchi bosqichda shaharsozlik talablari bo'yicha Bosh vazirning birinchi o'rinbosari hamda moliyaviy hisob-kitoblar bo'yicha Bosh vazir o'rinbosari tomonidan xulosa tayyorlanadi. Uchinchi bosqichda mazkur xulosa ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun Bosh vazirga kiritiladi.

Videosektor yig'ilishida tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash masalasi ham muhokama qilindi.

Ma'lumki, oxirgi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta miqdorda kreditlar berildi. Ularning 90 foizdan ziyodi davlat mablag'laridir.

O'tkazilgan o'rganishlar 2017-2018-yillarda bankdan kredit olgan mingdan ortiq tadbirkorlarning loyihalari bo'yicha yer ajratish, infratuzilmaga ulanish, ruxsatnoma olish, dastgohlarni keltirish va boshqa turli masala-

larga doir muammolar borligini ko'rsatgan. Bu, o'z navbatida, berilgan kreditlarning qaytarilishini qiyinlashtiradi.

Shu bois Hisob palatasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga muammolari bo'lgani uchun to'liq amalga oshirilmayotgan loyihalarni ro'yxatini shakllantirib, ularga amaliy ko'mak berish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari banklar ish uslubini tubdan o'zgartirib, tadbirkorlarni ularning butun faoliyati davomida qo'llab-quvvatlashi, o'z mijozlari bilan haqiqiy ma'noda biznes-hamkor sifatida ishlashi kerakligini ta'kidladi.

Xalqaro kredit liniyalari mablag'larini tadbirkorlik sohasiga kengroq jalb qilish, ularni o'zlashtirish borasida har bir hudud kesimida takliflar ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Tijorat banklarida tashkil etilgan Investitsiya markazlari orqali bu kreditlarning yo'nalishlari va shartlari to'g'risida har bir mijozga to'liq ma'lumot berish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda faoliyatini to'xtatgan kichik biznes sub'ektlarini qayta tiklash masalalari ham tahlil qilindi. Mutasaddilarga soliq va statistika ma'lumotlarini tahlil qilib, har bir korxonaning faoliyat ko'rsatmaslik sabablarini aniqlash vazifasi qo'yildi. Hokimlarning tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari va joylardagi iqtisodiy kompleks idoralari rahbarlari faoliyatini tiklash imkoni bo'lgan korxonalar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini hal etishga yordam berishi kerakligi ta'kidlandi.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarini tiklash, ish o'rinlarini legalizatsiya qilish, yangi loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish hisobiga soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

## O'zbekistonlik o'quvchilarning xalqaro olimpiadadagi yutug'i

2019-yilning 26—29-iyul kunlari Malayziyada matematika va tabiiy fanlar bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiada o'tkazildi. Unda Vatanimiz sharafiga 13 o'quvchi muvofiq hisobga qildi.

Olimpiadaning maqsadi «STEAM» (Science, Technology, Engineering, Arts and Mathematics) yo'nalishidagi ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarini nafaqat axborotni eslab qolish va xotirlash, balki ijodkorlik, mustaqil qidirish, tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor bergan holda ilgari surish hisoblanadi.

Ishirokchilar final bosqichiga rebus va matematik masalalarni yechish yo'li bilan tanlab olindi. Mazkur bosqichda yosh toifalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Olimpiada yakunida yosh vatandoshlarimiz 20 davlatdan kelgan 1100 dan ortiq o'quvchi orasida turli yo'nalishlarda 5 oltin, 2 kumush va 12 bronza medalni qo'lga kiritdi.

Tadbir tashkilotchilari yurtimiz maktab o'quvchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning g'alabaga bo'lgan ishtiyoqini hamda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasini yuqori baholadi.



O'zbekistonda umumta'lim maktablari o'quvchilarida shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun barcha sharoitlar

mavjudligi alohida e'tirof etildi.

Mamlakatimiz jamoasining mazkur tadbirda yuqori natijalarni qo'lga kiritgani bunga yaqqol misol bo'la oldi. Jumladan, matematika bo'yicha oltin medalga yosh hamyurtimiz Marat Mustafin, tabiiy fanlar bo'yicha esa Timur Fayzullayev, Firdavs Toshtemirov, Abdulla G'ayratullayev, Ramiz Zoxrabov sazovor bo'ldi.

Sh.NAMOZOV

## Mustaqillik inshootlari

# Yangi maktab — yangi imkoniyatlar



Prezidentimizning 2016-yil 22-noyabrda "2017—2021-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq uy-joyga ehtiyojmand aholi qatlami ro'yxatga olinib, jamlab hamyurtlarimiz yangi xonadon sohibi bo'lmoqda.

Poytaxtimizning Sergeli tumanida ham qisqa vaqtda yangi massivlar paydo bo'ldi. Ayni paytda bu yerda ko'plab uylar qurilib, egalari topshirildi. 1, 2 va 3 xonali uylar aholiga imtiyozli kredit asosida, arzon narxlarda berilyapti.

Ko'rkam va salobatli ko'pqavatli uylar, toza va ozoda ko'chalar, sport komplekslari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari havasini oshiradi. Bunday go'zal maskanda qo'ni-qo'shnilar ham ahil va birdam bo'lib yashaydi. Hammasi yaxshi, hammasi go'zal. Havas bilan yangi ko'chib kelgan xonadon egalari suhbatga tordik.

Ko'chib kelganimizga bir yil bo'ldi, — deydi Sergeli 7-"A" qurilish hududida yashovchi Iroda Komilova. — Uylarimiz shinam, sifati barpo etilgan. Ko'chalarimiz obod. Ammo hududimizda hali ham maktab va bog'cha ishga tushmagani ko'plab yangi ko'chib kelganlarga noqulaylik tug'diryapti. Farzandlarim Uchtepa tumanidagi 38-maktabda tahsil olardi. Sergeli tumaniga ko'chib kelganimizdan so'ng bu yerdagi ta'lim sifati yaxshi maktablarni surishtirdik. Va ikki nafar maktab yoshidagi farzandimni 6- va 300-IDUMga joylashga urindim. Ammo bu maktablarda o'quvchi soni ko'pligi sababli qabul qilishmadi. Natijada o'tgan o'quv yili davomida bolalarim masofa uzoq bo'lishiga qaramasdan yana o'zlari tahsil olgan maktabga qatnab o'qishdi. Juda ko'p yangi ko'chib kelgan qo'shnilarim shu muammoga duch keldi. O'zingizga ma'lum, imtiyozli kredit asosida olingan uylar asosan davlat va jamoat ishida ishlaydigan oilalarga berilgan. Ota-onasi har kuni ishlaydigan bolalarni uzoqdagi maktabga olib borib, olib kelish qiyinchilik tug'diradi. Endi hammamizda yana savollar: bu o'quv yilida hududimizda yangi maktab ochi-

larmikan? Yangi maktabning shuncha ko'pqavatli uylarda yashayotgan barcha maktab yoshidagi bolalarni qamrab olishga quvvati yetadimi?

## "Barcha o'quvchilarni qamrab olishga quvvatimiz yetadi!"

Sergeli tuman xalq ta'limi bo'limi mutaxassislarining ma'lumotiga ko'ra, tumanda 25 ta umumta'lim maktabi va 1 ta "Barkamol avlod" bolalar ijodiyot markazi mavjud. 2017-yili Prezident qarori asosida 6-"A" hududida yangi uylar qurilishi barobarida 630 o'rinni yangi maktab foydalanishga topshirilgan edi.

— Bugungi kunda tumanimizda yangi massivlar barpo etilayotgani sababli aholi soni keskin oshib bormoqda, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari O'tkir Turg'unboyev. — Bu esa, tabiiyki, ta'lim muassasalariga bo'lgan talabni oshiradi. Mavjud holatdan kelib chiqib bugun tumanda mavjud maktablarda qo'shimcha binolar qurish, ayrim kasb-hunar kollejlari binolarini maktabga aylantirish ishlari boshlab yuborilgan. Ayni kunlarda Ne'mat Qahhor ko'chasidagi 267-hamda Uzar ko'chasida joylashgan 303-maktablarda o'quvchi soni ko'pligini inobatga olib, 360 o'rinni qo'shimcha bino qurilyapti. Ishlar yakuniga yetay deb qoldi. Binolar yangi o'quv yilidan ishga tushadi. Shuningdek, tumanimizda barpo etilayotgan yangi turarjoylar orasida jami 4 ta maktab qurilmoqda. Ushbu maktablarga mahoratli, bilimli o'qituvchilarni saralab olishga katta e'tibor qaratyapmiz.

"O'zshaharqurilishinvest"ga xat bilan murojaat qilib, uylarning qurilish-montaj ishlari qachon oxiriga yetkazib, topshirilishi haqida ma'lum-

ot oldik. Tashkilot joriy yilning sentabr-oktabr oylarida uylar bitishini ma'lum qildi. Shunga muvofiq hozirda mazkur hududlardagi maktablarni ham oktabr oyigacha foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ushbu maktablar 4 qavatli, 1 680 o'ringa mo'ljallangan. Tuman hokimligi bilan hamkorlikda ko'chib kelishi kutilayotgan aholi va ularning maktab yoshidagi farzandlari sonini o'rganib chiqdik va shunga muvofiq ko'p o'rinni maktablar qurish loyihasini taklif etdik. Shu bilan birga, hozirda Toshkent moliya-iqtisodiyot kolleji binosida ham yangi umumta'lim maktabini tashkil etish ustida ish olib borilyapti. Mazkur ta'lim muassasasi binosi 1 080 o'rinni bo'lib, bu binoda yangi maktabning ishga tushishi hududda joylashgan 1,75 (6-IDUM) va 1,69 (7-maktab) ko'rsatkichidagi ishlab kelayotgan ta'lim muassasalaridagi o'quvchi sonini me'yorlashtirishga yordam beradi. Choshtepa hududida ham katta turarjoylar qurilishi avjida. Hozircha bu hududdagi 32-maktab quvvati bu yerda istiqomat qilayotgan maktab yoshidagi o'quvchilarni qamrab olishga yetadi. Kelgusi yildan esa mazkur hududda ham 960 o'rinni yangi ta'lim muassasasi barpo etilishi ko'zda tutilgan.

Tuman xalq ta'limi bo'limi yangi ko'chib keluvchi barcha maktab yoshidagi o'quvchilarni qamrab olish, ota-onalarga qulayliklar yaratish, ularning barcha savollariga javob berish maqsadida call-centr va @sergeliTXTB\_bot faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ota-onalar (71) 257-20-93 telefon raqami orqali farzandini maktabga joylashtirish va tumandagi ta'lim maskanlari borasida ma'lumotlarni olishi yoki o'z muammolari bilan murojaat qilishi mumkin.

Zilola MADATOVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

Baxmal tumanidagi 1-maktabning o'quvchi va o'qituvchilari yangi o'quv yilini o'zgacha ishtiyoq bilan kutishyapti. Negaki o'quv dargohi yangicha ko'rinish kasb etdi. Sport zali qaytadan ta'mirlanib, kerakli jihozlar bilan ta'minlandi.

## Baxmalda katta taraddud

O'quvchilarning jismoniy tarbiya darslari va to'garak mashg'ulotlarini olib borishga zarur sharoit yaratildi. Sport zali majmuasida qizlar va o'g'il bolalar uchun alohida kiyim almashtirish xonasi qurildi. Maktab binosining eshik-derazalari zamonaviysiga almashtirildi, tom qismi yangilandi. Qurilish-ta'mirlashga 940 million so'm mablag' sarflandi.

— Hozir 30 ta sinfxona mavjud bo'lib, ularning barchasi yangi jihozlar bilan ta'minlandi, — deydi maktab direktori Surayyo Abdurahmonova. — Fizika, kimyo, biologiya xonalari laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan bo'lsa, chet tili, texnologiya, rus tili fanlari sinf o'quvchilari 25 nafardan oshganda 2 guruhga bo'lib o'qitish uchun tayyor holatga keltirildi.

E'tiborlisi, ayni kunda mehnat ta'tilidan qaytgan o'qituvchilar o'z xonalarini yangi o'quv yiliga tayyorlashda bosh-qosh bo'lmoqda. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zamira Eshquvvatova ham ko'p yillardan buyon mehnat qiladi. U o'ziga biriktirilgan xonalarni ko'rgazmali qurollar, rasmlar va boshqa zarur vositalar bilan boyitmoqda. Bino 1-qavatining 5 ta muhim tashabbusga moslab jihozlanayotgani kishi ko'zini quvontiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim maskanida yangi o'quv yiliga hozirlik ishlari nihoyasiga yetgan.

68-maktab tumanning "O'smat" qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Aholining ko'payishi va bolalar sonining ortishi 120 o'rinni o'quv binosida dars va mashg'ulotlarni ko'ngildagidek olib borishda qiyinchilik tug'dirayotgan edi. Shuni hisobga olib, "Obod qishloq" dasturi asosida maktabda 140 o'rinni qo'shimcha bino va sport zali qurilmoqda. Buning uchun 2 892,1 million so'm mablag' ajratilgan.

"Bog'ishamol" QFYdagi 64-, 33-, 34-maktablar ham yangi o'quv yilida o'zgacha ko'rinish oladi. Hozir bu ta'lim muassasalari "Obod qishloq" dasturi asosida rekonstruksiya qilinmoqda. "Qutlug'obod" QFYdagi 65-maktabda esa joriy ta'mirlash ishlari avjida.

Tumandagi Olomon qishlog'idagi 6-maktab ham kapital rekonstruksiya qilinmoqda. 140 o'rinni qo'shimcha bino qad rostlayapti. Yangi o'quv yilida maktabga 612 nafar o'quvchi qabul qilinadi. O'z navbatida, kuz-qish mavsumiga ham qizg'in hozirlik ko'rilmog'da. 4 ta isitish qozonxonasi tabiiy gazga moslangan bo'lib, sinovdan o'tkazildi.

"Novqa" MFYdagi 8-maktab uzoqda joylashgani sababli bolajonlar kuz-qish faslida qiynalar edi. Investitsiya dasturi asosida qishloqda 64 o'ringa mo'ljallangan maktab filiali barpo etilmog'da.

— Yangi o'quv yilida tumanimizdagi 79 ta umumta'lim maktabi 32 024 nafar o'quvchini o'z bag'riga oladi, — deydi Baxmal tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Kamol Gulboyev. — Ularga 32 016 nafar pedagog saboq beradi. "Obod qishloq" va Investitsiya dasturi asosida birgina Baxmal tumanida olib borilayotgan ishlar ko'lami katta. 13 ta ta'lim dargohida bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Qurilish-ta'mirlash nihoyasiga yetishi bilan qishloqlarning ko'rkiga yana-da ko'rk qo'shiladi. Muhimi, o'quv maskanlarida o'quvchilarning zamon talabi darajasida bilim olishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilmog'da.

Abdusattor SODIQOV,  
"Ma'rifat" muxbiri

# Olti oy sarhisobi

Gazeta mushtariyga manzur bo'lishining eng samarali yo'li o'quvchiga minbar berishdir. "Ma'rifat" bugun barcha ziyolilarning minbari bo'lishga intilmoqda. 2019-yilning birinchi yarmida mualliflarimiz soni va geografiyasi o'tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada kengaygani, tahririyatga murojaatlarning oshib borayotgani buning dalilidir.

## O'tgan 6 oyda 10 ta maqolasi chop etilgan muallif

Abdunabi Abdiyev, Mirishkor tumanidagi 22-maktab direktori.

### 8 ta

Ravshan Matmusayev, xususiy tadbirkor.

### 6 ta

G'ayrat Qorabekov, Bulung'ur tumanidagi 11-maktab texnologiya fani o'qituvchisi;

Aziza Boymurodova, Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-maktab direktori;

Hafiza Rashidova, Termiz shahridagi 13-maktab o'qituvchisi.

### 4 ta

Zumrad Matqurbonova, Xorazm viloyati XTB bo'lim boshlig'i;

Mansurxon Toirov, professor.

### 3 ta

Dilnoza Narzullayeva, Vobkent tumanidagi 21-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

Dildor Nurmuhamedova, Termiz tumanidagi 9-maktab o'qituvchisi;

Shuhrat Mahmudov, o'qituvchi, Romitan tumani;

Komil Jalilov, A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi;

Komila Rajabova, Navoiy shahridagi 11-IDUM o'qituvchisi;

Shoira Mirzayeva, Baliqchi tumanidagi 6-maktab o'qituvchisi;

Xurram Rahimov, Germaniyadagi olmon-o'zbek ilmiy jamiyati raisi, O'zbekiston nemis tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi raisi;

Gulnoza Xoldorova, Namangan shahridagi 21-IDUM o'qituvchisi;

Aziza Temirova, Yakkasaroy tumanidagi 91-maktab direktori;

Usmon Haydarov, Buxoro tumanidagi 13-IDUM o'qituvchisi;

Dilfuza Bekmurodova, Kogon tuman XTB metodisti;

Hilola Qobilova, Buxoro viloyati XTB mutaxassisi;

Shahnoza Akramova, pedagogika fanlari doktori;

Omon Hayitov, Qo'shrabot tumanidagi 21-maktab o'qituvchisi;

Mopar Haydarova, Sherobod tumanidagi 60-maktab o'qituvchisi;

Aziza Bekmirzayeva, Uchqo'rg'on tumanidagi 16-maktab o'qituvchisi;

Raxshona Ahmedova, jurnalist, Seul shahri;

Dilobar Normatova, Zarbdor tumanidagi 26-maktab o'qituvchisi;

Ahmad Tojiyev, Shofirkon tumanidagi 55-IDUM o'qituvchisi;

Tamara G'aniyeva, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi;

Jo'raqul Davlatov, Olot tumanidagi 16-maktab o'qituvchisi;

Atira Rahmonova, Marhamat tumanidagi 10-maktab o'qituvchisi;

Odina Ahmedova, Bag'dod tumanidagi 51-maktab



o'qituvchisi;

Shahnoza Isayeva, Zarbdor tumanidagi 3-maktab o'qituvchisi;

Gulnoza Mirzaqulova, Jizzax shahridagi 13-maktab o'qituvchisi;

Zulfiya Qurbonova, Zarafshon shahridagi 4-maktab o'qituvchisi;

Go'zal Umarova, Mirobod tumanidagi 440-MTM loqopedi;

Muhayyo Odilova, Izboskan tumanidagi 8-IDUM o'qituvchisi;

Gulbahor Qurbonova, Boysun tuman XTB metodisti

Muniraxon Toirova, Qo'rg'ontepa tumanidagi 30-IDUM o'qituvchisi;

Mohira Najmiddinova, Shofirkon tumanidagi 4-maktab o'qituvchisi.

## "O'qituvchi nimani o'ylaydi?" va "Mushtariy muhokamasi" ruknlarida aprel, may, iyun oylarida faol qatnashgan

### o'qituvchilar

#### 7 marta

Hafiza Rashidova;

Dilfuza Suvonova.

#### 6 marta

Dildor Nurmuhamedova;

Gulchehra Ashurova.

#### 5 marta

Shahnoza Avazova;

G'ayrat Qorabekov;

Go'zal Pinyozova.

#### 4 marta

Lobar Yoqubova;

Yulduzoy Jabborova;

Muzaffar Qosimov;

Yulduz Ibrohimova.

#### 3 marta

Farida Axboraliyeva;

Hilola Rashidova;

Dilnoza Ahmedova;

Dilafro'z Bobojonova;

Mohira Choriyeva;

Hulkaroy Azimova.

#### 2 marta

Ulug'oy Xudoynazarova;

Sh.Ergashevna;

Zebo O'rinova;

Ravshan Matmusayev;

Mavludaxon Muqimova;

Lola Ahmedova;

Odinaxon Ahmedova.

Guvoh bo'lganingizdek, joriy yilning dastlabki choragida Termiz, Shofirkon, Zarbdor tumanlari muallimlari gazetamiz sahifalarida faol chiqish qilishdi. Keyingi uch oylikda esa Qashqadaryo, Xorazm, Andijon viloyati, Toshkent shahri vakillari faollik ko'rsatdi.

## O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Imlo savodxonligini oshirish ishlarini o'qituvchilardan boshlash kerak. Masalan, attestatsiyadan o'tkazishning bir qismiga savodxonlikni baholash ham qo'shilishi lozim, deb o'ylayman. Boshlang'ich sinf, ona tili va adabiyot o'qituvchilariga diktant yoki insho yozdirish ham attestatsiyadan o'tish mezoniga kiritilsa, yomon bo'lmas edi.

DILFUZA

Darsliklar orasida halol raqobat bo'lishi kerak. Afsuski, "muqobil darsliklar" haqidagi qarorga kiritilgan qoidalar halol raqobatni yo'qqa chiqaradi. Yaqinda e'lon qilingan muqobil darsliklar bo'yicha yo'riqnomaga esa darsliklar sohasiga iloji boricha hech kimni yaqinlashtir-maslik uchun tuzilganday taassurot uyg'otadi.

Komil JALILOV

Necha oylardan buyon "Matbuot tarqatuvchi"lar bilan kelisholmay xunobman. Obuna bo'lgan nashrlarimizni qo'lga olishimiz kechikib ketmoqda. Ular bilan urishaverib, tortishaverib, oxiri indamay qo'ygandim. Ayblarini tushunishdi, shekilli, "Til va adabiyot ta'limi" jurnalining 4-, 5-, 6-sonlarini birdan olib kelishdi. Eng quvonarlisi, jurnalning 5-sonida dars ishlanmam chiqarilibdi.

D.NURMUHAMMEDOVA

O'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Yana dars taqsimoti boshlanadi. Qachon o'qituvchilarning to'liq bir stavkada ishlashini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjat qabul qilinadi? Kechagina kelgan mutaxassisga ham, oliy, birinchi, ikkinchi toifali o'qituvchiga ham bir xil dars soati beriladi. Dars taqsimoti bo'yicha ham aniq mezonlar bo'lishi kerak.

G'.QORABEKOV

Direktor o'rinbosari har bir fan o'qituvchisidan PISA testi olinishini aytdi. Boshqa maktablarda ham shu gap bormi? O'qituvchilarning umumiy bali hisoblanib, maktab reytingi shu bilan belgilanarmish.

Gulrux MAHMUDOVA

Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari har gapining birida "Maktab uchun har narsaga tayyorman. Mana, 10 yildan buyon "otpuska" nimaligini bilmayman. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlayman. Hattoki qarindoshim to'y qilsa ham, bormayman", deganida hayron qolgan edim. Vaholanki, u bo'lmasa ham, ishlar to'xtab qolmaydi. Buni o'zi ham bilarkan.

QISHLOQLIK O'QITUVCHI

Xafaman. Matematika soatlari ham qisqartirilarmish. Haftasiga 2 soat algebra, 2 soat geometriya juda kamlik qiladi. Bizni hech kim tinglamayapti. Fanlar optimallashtirilsa, har bir fan o'qituvchisi mening holatimga tushishi aniq.

Feruza G'AFFOROVA

Muhtaram muallimlarimizni yanada faol bo'lishga chorlab qolamiz!

Internet ham bugun siz-u bizning xizmatimizda: @marifatziyo; Web-sayt: www.marifat.uz;

Pochta: info@marifat.uz; www.facebook.com/marifat.uz

Telegramdagi guruhimiz: @marifatmushtariylari

## Xalqaro hamkorlik

# O'zbekiston — Belarus: Ilm yo'lidagi hamkorlik

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ketma-ket e'lon qilinayotgan malaka oshirish, ilmiy stajirovka to'g'risidagi tanlovlar olimlar uchun imkoniyat eshiklarini keng ochdi. Jumladan, yaqinda O'zbekiston—Belarus hamkorligi doirasida maqsadli malaka oshirish uchun tanlab olingan 100 nafar yosh olim chet ellik hamkorlar bilan tajriba almashish uchun Belarus Respublikasida bo'lib qaytdi.

Qisqa muddatli, ammo puxta tashkil-lashtirilgan hamkorlik yosh olimlar zim-masiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Maqsadli malaka oshirish uchun yuborilgan yoshlar o'z mutaxassisli-gi bo'yicha mas'ul ilmiy rahbarlarga birlashtiriladi. Ilk taassurotlarni ifodalashga so'z topish qiyin. Belarus Milliy Fanlar akademiyasi tasarrufidagi Umumiy va noorganik kimyo institutida barcha sharoitlar yaratilganini ko'rib, hatto mehmon ekanimni ham unutib, birinchi kunning o'zidayoq shu yerlik olimlardan ish tuga-gach qolib ishlash uchun ruxsat so'radim. Bu yerdagi ilk kunning o'zida birlashtiril-gan ilmiy rahbar yordamida institut faoli-yati bilan tanishish jarayonida labora-toriyalarning ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlangani, olib borilayotgan izlan-ishlarning yuqori saviyasi, yosh kadrlar-ing ilmiy salohiyatiga havas qildim.

Malaka oshirish dasturi doirasida Bel-arus Milliy Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining "Pol-imer saqlovchi dispers sistemalar" va "Ad-sorbent" kabi laboratoriyalarida malaka oshirib, u yerdagi ilg'or texnologiyalar bilan tanishdik. Tozalangan suvning yana ishlatish uchun qaytarilishi suvni tejash-ga va iqtisodiy samaradorlikka olib kela-di. Shu maqsadda sanoat oqava suvlarini tozalashning, adsorbentlar olinishining yangi usullarini o'zlashtirdik. Biz o'rgan-gan usullarni, ilg'or texnologiyalarni yur-timizda ham qo'llasak, birinchi navbatda, ishning sifati oshadi, qolaversa olib bo-ri-ladigan tadqiqot uchun ketadigan vaqt besh barobar qisqaradi. Shuningdek, ilmiy natijalarimiz xalqaro Scopus nashrlarida e'lon qilinishi uchun zamin yaratiladi. Bu kabi stajirovkalarning uyushtirilishi fan rivoji uchun yangi sahifa ochib berdi. Sa-babi yosh olimlarimizning ilmiy fikrlashi, dunyoqarashi yanada kengaydi. Tabiiyki, aniq maqsad bilan Belarus yurtiga borgan har bir yosh olim yangi ilmiy g'oyalari, O'zbekistonimiz ilm-faniga nafi tega-digan ishlanmalar bilan qaytadi.

Men faoliyat yuritadigan O'zbekis-ton Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti-ning "Kolloid kimyo" laboratoriyasida turli zararli moddalar bilan ifloslangan sanoat oqava suvlarini yumshatish va tozalash kabi qator ilmiy izlanishlar olib boriladi. Har bir korxonada qanday mahsulot ishlab chiqarishiga qarab, suvi turlicha ifloslanadi. Ifloslangan suvlarni ruxsat etilgan me'yoriy ko'rsatkichlarga-cha tozalamasdan turib daryo va dengiz havzalariga oqizib yuborish mumkin

emas. Bu, avvalo, daryo va dengizda ya-shaydigan suv jonivorlari va suvo'tlar-ni hayotiga xavf tug'diradi. Qolaver-sa, atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi. Shu bilan birga daryo va dengiz atrofida yashaydigan aholi salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi



ekologik muammolarning yechimi sifa-tida sanoat oqava suvlarini tozalashda yangi adsorbentlar ishlab chiqish uchun mahalliy xomashyolardan foydalaniladi. Adsorbent — yutuvchi modda bo'lib, mahalliy xomashyo sifatida taklif etilayotgan tabiiy adsorbent bu biz bilan ko'mirdir. Turli zararli moddalar bilan ifloslangan sanoat oqava suvining kimyoviy tarkibida eng kamida 20 ga yaqin turli elementlar mavjud. Har bir elementning miqdorini bilish uchun esa tarkibidagi mavjud elementlar soni-ga teng miqdordagi usullar yordamida aniqlaymiz. Kimyoviy tarkibini aniqla-may, zararli zarralar miqdorini bilmay turib, uni tozalash uchun adsorbent yoki reagentni tavsiya etib bo'lmaydi.

Institut laboratoriyasida mavjud qurilmalarda bizning mahalliy xo-mashyo asosida termik va pargaz ishlov berilgan adsorbentlarni ham o'rganish uchun ruxsat so'radim va olingan ilk natijalarni belaruslik tadqiqotchi yuqori baholadi.

Dilnoza JUMAYEVA,  
O'zFA Umumiy va noorganik kimyo  
institutini yetakchi ilmiy xodimi,  
texnika fanlari doktori

O'tgan yili O'zbekiston va Belarus hukumatlari o'rtasida imzolangan ikki tomonlama hamkorlik kelishuvi doirasida bir guruh o'zbekistonlik yosh olimlar Belarus Milliy Fanlar akademiyasida stajirovka o'tagandi. Bunda olimlarimiz ilm-fanning turli yo'nalishlari — texnika, matematika, tabiiy fanlar, gumanitar sohada Belarus Milliy Fanlar akademiyasi erishgan yutuqlar, zamonaviy ishlanmalar bilan tanishish, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Albatta, ilm-fan taraqqiyotini guma-nitar sohasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni Belarus Milliy Fanlar akademiyasi tarixi ham ko'rsatib turibdi. Zero, akademi-ya tarixi Belarus madaniyati instituti nomi bilan bog'liq. Hozir gullab-yashnayotgan

Masalan, ko'chalardagi ko'plab ijtimoiy reklamalarda biror predmet (meva, sab-zavot) tasviri va uning ona tilidagi nomi keltirilib, "Ona tilimizning totti" singari sloganlar berilganki, bu, shubhasiz, til egalarida ona tiliga muhabbat tuyg'ula-rini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kondrat Krapiva nomidagi san'at-shunoslik, etnografiya va folklor instituti-da stajirovka o'tayotgan Aziza Ahmedova ham institut tarixi va arxivi bilan tanishdi. 1957-yili tashkil topgan folklor arxivida juda qimmatli xalq og'zaki ijodi namu-nalari saqlanadi. Ushbu manbalarning barchasi hozirda raqamlashtirilgan bo'lib, Garamantas.lv saytiga xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida qo'shiq, doston, ekspeditsiya lavhalari joylashtirilgan. Xalq og'zaki ijodiga qiziqqan har bir kishi say-tga kirib, xalq og'zaki ijodi namunalarni ko'rish va eshitish imkoniga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademi-yasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor in-stitutining ham Markaziy Osiyoda yago-na Hodi Zarifov nomidagi folklor arxivi mavjud. Hozir arxiv raqamlashtirilmagan bo'lib, yaqin kelajakda institut arxivini raqamlashtirish rejalashtirilmoqda. Shu ma'noda, yozib olingan og'zaki ijod namu-nalarini raqamlashtirish borasida ancha il-garilab ketgan belarus hamkasblarimizning tajribasini o'rganish va tatbiq etish katta amaliy ahamiyatga ega.

Yanka Kupala nomidagi adabiyot in-stitutida stajirovka o'tayotgan Guljahon Namozova ham institut tarixi, bugungi kuni, institutda amalga oshirilayotgan loy-ihalar va ayni paytdagi faoliyati bilan ya-qindan tanishdi. Ikki tillilik sharoitida bel-arus tili bilan birgalikda adabiyotini ham saqlab qolishga harakat qilinmoqda. Bel-arus yozuvchilarining internetda o'z tilida sahifalarini yuritishi, kichik-kichik fiqra, hikoyalari e'lon qilishi va bularga adabiyot-shunoslar fikrining berib borilishi diqqatga sazovor. Bundan tashqari, tarjimashunoslik nazariyasi va tarjima yo'nalishida ham bir qator yangiliklar qilingan. Adabiyot jumallarida muallifning aynan o'zi tomo-nidan qilingan tarjimalar berib borilishi ham diqqatga sazovor. Adabiyotshunoslik sohasida yangi yo'nalishlar, zamonaviy tendensiyalar paydo bo'lgan. Butun dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bir pallada migratsiya, gender, insoniyatning ruhiy ke-chinmalarini anglash singari qator masala-lar ham ilm-fan nazariidan chetda qolgan yo'q. Belarus adabiyotshunosligida ayni shu masalalarni fan bilan bog'lab o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu markaz uchta institutni qamrab oladi: Yakub Kolas nomidagi tilshunoslik instituti, Yanka Kupala nomidagi adabiyot instituti hamda Kondrat Krapiva nomidagi san'atshunoslik, etnografiya va folklor in-stituti.

Tilshunoslik instituti faoliyati bilan tanishgan Feruza Musayeva va Mux-tasar Jo'rayeva bu yerning tarixi, insti-tutda bajarilayotgan loyihalar xususida zarur ma'lumotlarga ega bo'ldi. Milliy til korpusini yaratish, turli maktab lug'at-lari, ikki tili qiyosiy lug'atlar, yangi tipdagi izohli lug'atlar tuzish tajribasi tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'ot-di. Shuningdek, ikki tillilik sharoitida (ma'lumki, Belarusda rus va belarus tillari davlat tili maqomiga ega) belarus tilini saqlab qolish va uni rivojlantirish borasidagi amaliy harakatlar ham tad-qiqotchilarda katta taassurot qoldirdi.

# Ijodiy imtihonda kasbiy layoqat aniqlanadi

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2019-yil 4-iyuldagi 1-sonli bayoniga muvofiq, 2019-2020-o'quv yili uchun tasdiqlangan 122 ta ta'lim yo'nalishida qabul test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali amalga oshirilyapti.



Ayni kunlarda 85 ming nafarga yaqin yigit-qiz kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etmoqda. 2019-yilning 25-iyulidan 10-avgustga qadar test sinovlarisiz ijodiy imtihonlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ham ijodiy imtihonlar ayni qizg'in pallada.

— Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishida abituriyentlar ijodiy imtihondan tashqari test sinovlaridan ham o'tishadi, — deydi qabul komissiyasi a'zosi Anvar Temirov. — Masalan, yangi tashkil etilgan menejment (sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishida barcha fanlardan test bo'lib o'tadi. Mutlaq ijodiy imtihonlar esa 25-iyuldan 2-avgustga qadar davom etdi.

2019-2020-o'quv yilida 27 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 471 ta (90 ta davlat granti, 381 ta to'lov-kontrakt asosida) kvota ajratilgan. Shuningdek, bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga 1 526 nafar abituriyent hujjat topshirgan. Ulardan 39 nafari turli tanlovlar g'oliblari sifatida davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. Bundan tashqari, magistratura mutaxassisliklariga 48 ta (14 ta davlat granti, 34 ta to'lov-kontrakt asosida) kvota ajratilgan.

— Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha sinov dasturlari va har bir fan xususiyatini hisobga olgan holda baholash mezonlari, shuningdek, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos keluvchi

fanlar majmuasi OTMlar tomonidan ishlab chiqilgan, — deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi axborot xizmati xodimi Bahridin Shayvaliyev. — Ijodiy imtihonlarning adolati va shaffof o'tishi hamda baholanishi uchun imtihon bo'ladigan barcha auditoriyalar, sport zallari va maydonlarga kuzatuv kameralari o'rnatilib, ota-onalarga jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, imtihonni jamoatchilik nazorati ostida shaffof va oshkora o'tkazish maqsadida jarayonga ota-onalar, tuman (shahar) xalq deputatlari, davlat va nodavlat tashkilotlari mutaxassislari ham taklif qilingan.

Har bir yo'nalish bo'yicha ijodiy imtihonlar uch kun mobaynida o'tkaziladi. Masalan, birinchi kuni abituriyent faqat qalam bilan ishlasa, ikkinchi kuni rangtasvirda, uchinchi kuni esa xohlagan o'quv quroli bilan mahoratini namoyish qiladi. Har kunlik imtihon 6-7 soat davom etadi. Bunday holatlarda, albatta, barcha xavfsizlik choralarini ko'rilishi va abituriyentlarning xatti-harakatlaridan guruh nazoratchilari doim boxabar bo'lib turishi kerak. Shuningdek, tashqarida farzandlarini olti soatlab kutib o'tiradigan ota-onalar uchun ham qulay sharoit bo'lishi lozim.

Abituriyentlarning ijodiy ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: chizmasvir, rangtasvir hamda kompozitsiya bo'yicha bajarilgan har bir ish 10 ta mezon asosida baholanadi. Bu mezonlar asosida sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab chizmasvir fani bo'yicha 63,

rangtasvir fani bo'yicha 30, kompozitsiya uchun 93 ball berishi belgilangan. Har bir fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari 3 nafar bo'ladi va ular (mutaxassislik) kafedralari professor-o'qituvchilar tarkibidan tanlanadi.

— Bugun birinchi kun bo'lgani uchun biroq hayajonlanaymiz, lekin ikkinchi-uchinchi kunlarga borib hayajonimiz ancha kamaysa kerak, — deydi abituriyent Laylo Aliyeva. — Bugun chizmasvir bo'yicha rasm chizarkanmiz. Chizmasvir va rangtasvirdan ko'nglim to'q, ammo uchinchi kuni bo'lib o'tadigan kompozitsiya chizishdan biroq cho'chib turibman. Eng asosiysi va eng yuqori ball ham aynan kompozitsiyani qanchalik mahorat bilan chizganimizga qarab qo'yilarkan.

Nafaqat rassomlik, balki alohida iqtidor talab etiladigan yana bir qancha sohalar bor. Masalan, savodxonlikni tekshirish uchun ijodiy imtihon olinadigan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida joriy yilgi qabulda o'zbek tili va adabiyoti, filologiya tillarni o'qitish: o'zbek tili kunduzgi ta'lim yo'nalishlarida hamda o'zbek tili va adabiyoti sirtqi ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon sifatida abituriyentlardan diktant olindi.

— Ba'zi shunday yo'nalishlar bor, ularda ham ijodiy imtihon topshiriladi, ham test sinovlari yoki umuman test sinovlarisiz faqat ijodiy sinov o'tkaziladi, — deydi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qabul komissiyasi mas'ul kotibi Jo'ra Xudoyberdiyev. — Masalan, bizda diktant yozgan abituriyentlar barcha test bloklaridagi sinovlarni ham topshirishadi. Ayniqsa, bizning soha uchun savodxonligi yuqori bo'lmagan abituriyentni faqat test orqali qabul qilish noto'g'ri. Chunki bu universitetga so'zni tushungan, uni his qila olgan va ijodsiz hayotini tasavvur qila olmaydigan yigit-qizlar hujjat topshiradi. Adashib, tavakkal topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihondan so'ng bilim bo'ladi.

Test sinovlarisiz ijodiy imtihonlar shu yilning 25-iyulidan 10-avgustga qadar o'tkaziladi. Test sinovlarida ham qatnashadigan abituriyentlarning ijodiy imtihonlari esa davlat test imtihonlari boshlangunga qadar yakunlanishi kerak.

**FAVLAYEVA,**  
"Marifat" muxbiri

O'zbekistonlik bir guruh yigit-qizlar o'tgan oyda bir emas, ikki davlatda bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadada nufuzli o'rnlarni qo'lga kiritib qaytishdi.

## Xalqaro fan olimpiadalarida ham birinchimiz!



14 — 20-iyul kunlari Vengriya poytaxti Budapeshtda biologiya fanidan o'tkazilgan 30-jahon olimpiadasida O'zbekiston yoshlari birinchi marta birdaniga 3 ta bronza medal sohibi bo'ldi. Ular Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi o'quvchilari Saidaxon Valijonova, Xosiyatxon Qudratova va Navoiy davlat peggagogika instituti qoshidagi akademik litseyi o'quvchisi Husayn Egamovlardir.

Shu yilning 21—30-iyul kunlari Fransiyaning Parij shahrida 85 davlatdan 309 nafar o'quvchi ishtirok etgan 51-jahon kimyo olimpiadasida ham o'zbek yoshlari bilimlarini namoyish qildi. O'zbekiston jamoasidan 4 nafar o'quvchi qatnashib, nufuzli o'rnlarni egallashdi. Ulardan 3 nafari Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi o'quvchilardir.

ToshPTI akademik litseyi o'quvchilari — Islomjon Karimov hamda Mohira Boltayeva kumush, Ulug'bek Boyirbekov bronza hamda TDAU akademik litseyi o'quvchisi Diyor Xaitov bronza medalga sazovor bo'ldi.

— 51-jahon kimyo fan olimpiadasida kumush medalini qo'lga kiritdim. 100 baldan 84,4 ball to'pladim, — deydi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi bitiruvchisi Islomjon Karimov. — Bu yil universitetga kirishga harakat qilib yurgandim. Hujjatlarimni qayerga topshirsam ekan, deb ortiqcha o'ylanganim ham yo'q. Zero, maqsadim aniq edi va men o'zimni tibbiyotdan boshqa sohada ko'rolmadim. Shuning uchun ToshPTIga hujjatlarimni topshirdim. Va grant asosida o'qishga qabul qilindim. Oilada katta farzand bo'lganim uchun doim ukalarimga o'mak bo'lishga harakat qilaman.

Fayoza TO'RA qizi

## Ijod iqtidorni kashf etadi

Respublikamizdagi 31 ta OTMda qabul test sinovlarisiz, alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlariga kasbiy (ijodiy) imtihonlar bo'lib o'tmoqda. OTMlarda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni shaffof va oshkora tashkil qilish maqsadida jarayonga ota-onalar va jamoatchilik kengashlari jalb etilgan. Shuningdek, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim

yo'nalishlariga kirish uchun ijodiy (kasbiy) imtihonlar o'tkazilmoqda.

Institutimizda yengil sanoat texnologiyasi va dizayn fakultetining dizayn (kostyum dizayni) yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun ijodiy imtihon bo'lib o'tmoqda. U ikki bosqichda o'tkaziladi: chizmasvir hamda kompozitsiya bo'yicha ijodiy ishlar topshiriladi. Bu yil 286 abituriyent dizayn yo'nalishiga hujjat

topshirgan. Shundan 4 nafari imtiyozli asosda o'qishga qabul qilinadi. Ota-onalar va abituriyentlarning yaqin qarindoshlari imtihon jarayonini monitor orqali kuzatib borishyapti. Bundan tashqari, imtihon jarayonini auditoriya rahbari bilan birgalikda ota-onalar tomonidan tayinlangan vakillar ham kuzatmoqda.

— Qizim Ma'mura Samadova imtihon topshiryapti. Monitor orqali

hamma jarayonga guvoh bo'lyapman. Imtihon jarayoni a'lo darajada tashkil etilgan, — deydi Qashqadaryo viloyatidan kelgan Farog'at Berdiyeva. — Imtihonlar ijodiy bo'lgani uchun ijodiy kayfiyat beradigan o'quv binosida abituriyentlar hamda ota-onalar uchun turli qulayliklar yaratilgan.

O'g'liyo QAHHOROVA,  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti matbuot kotibi

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

# Mirzacho'l bag'ridagi gavhar

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tashabbusi bilan Sirdaryo viloyatiga mediatur tashkillashtirildi. Respublika nashrlarida faoliyat ko'rsatayotgan bir guruh jurnalist va blogerlar viloyatda amalga oshirilayotgan katta bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, o'zgarishlar bilan tanishdilar.

## Dotatsiyadan rivojlanish sari

Avval moliyaviy qaramlikda, ya'ni dotatsiyada o'tirgan Sirdaryo tumani keyingi uch yil ichida viloyatda sanoati rivojlangan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini xorijiy davlatlarga keng ko'lmda eksport qilayotgan tumanlardan biriga aylandi. Jumladan, "Sirdaryo farm", "Baxt farm", "Peng Sheng", "Mega lyuks" kabi korxonalar asosiy mahsulotlarini Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport qilayotir. Chunonchi, "Sirdaryo" erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yuritadigan "Sirdaryo universal oyna" mas'uliyati cheklangan jamiyatda o'tgan yili 50,1 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ushbu korxonada ayni vaqtda 100 turdagi shisha idishlar tayyorlanmoqda. Korxonaga Germaniya, Turkiyadan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar o'rnatilib, mahsulot tayyorlashda to'liq mahalliy xomashyodan foydalanilayotganligi idishlarning arzon va xaridorgirligini ta'minlayotir. Joriy yilda to'la quvvat bilan ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan korxonada yiliga 102 million dona shisha idish ishlab chiqarilib, 2 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi. Bu esa kelgusida mamlakatimiz farmatsevtika sanoatiga chetdan keltiriladigan shisha flakonlar miqdorini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu korxonada yonida "Sirdaryo glas" MChJ tomonidan farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati uchun uch xil rangli shisha idishlar tayyorlash loyihasi ro'yobga chiqarilayotir. 2020-yilda ishga tushiriladigan korxonada yiliga 3,7 million dollarlik mahsulot eksport qilina boshlaydi. "Sirdaryo shisha" korxonasi esa shisha idishlar uchun kvarts qumini qayta ishlash loyihasi o'zlashtirilmoqda. Yaxlit olganda bu uch korxonaning bir-biriga uzviyligi "Sirdaryo universal oyna" negizida sanoatlashgan klaster tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mediatur qatnashchilari zamonaviy korxonalarda idishlar ishlab chiqarish jarayonini kuzatib, hayratlarini yashirolmadi. Avval faqat paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan tumanda eng zamonaviy, Markaziy Osiyoda yagona klaster tizimidagi korxonalar faoliyat ko'rsatayotgani eng chekka hududlarda industriyani rivojlantirish yo'lida yirik loyihalar hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

"Peng Sheng" O'zbekiston — Xitoy qo'shma korxonasi keramik plitalar, santexnika mahsulotlari, terini qayta

ishlash, poyabzal tayyorlashning zamonaviy texnologiyalarda yo'lga qo'yilganligi mediatur ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Jurnalistlar korxonada ko'rgazma savdo zalida bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan tanishdilar.

— Chekka tumanda qisqa davrda 30 dan ortiq yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilgani juda katta voqeelik, — deydi "Правда Востока" gazetasi muxbiri Temur Nizayev. — Minglab odamlar doimiy yangi ish o'rinlari bilan ta'minlangan.

"Peng Sheng" O'zbekiston — Xitoy qo'shma korxonasi barpo etilgan zamonaviy issiqxonalar qishin-yozin dasturxonlarimizda sabzavot mahsulotlari serobligini ta'minlaydi. Har kvadrat metr issiqxonadan 60 kilogramgacha pomidor va bodring hosili olinayotgani, kam mehnat sarflab, bu mahsulotlarni yetishtirishdan yuqori daromad olinayotgani har qanday yer sharoitida ham shunday ixcham va katta manfaat keltiradigan issiqxonalarini yanada ko'paytirish zarurligini ko'rsatadi. Qo'shma korxonada yaqin yillarda 20 gektar maydonda zamonaviy issiqxonalar qurish loyihasi amalga oshiriladi.

Tumanda suv resurslarini tejash, tomchilatib sug'orish ishlarini paxtachilikka keng joriy etish borasida ham ibratli ishlar yo'lga qo'yilgan. Tomchilatib sug'orish usuli g'o'za maydonlarida qo'llanganida gektariga oddiy usuldagiga qaraganda 1200—1500 kubometr o'rninga 500—600 kubometr suv sarflanadi. Texnika dalaga kirmasligi oqibatida yonilg'i sarfi uch baravar kamayadi. Boz ustiga hosil 15—20 kun oldin pishib yetiladi. Hosildorlik ham oddiy usuldagiga qaraganda 15—20 sentner yuqori bo'ladi. "Peng Sheng" O'zbekiston — Xitoy qo'shma korxonasi qoshidagi "Sirdaryo koten klaster" korxonasi o'tgan yili 50 gektar maydondagi paxtaning har gektaridan 45 sentnerdan hosil terib olingandi.

Bu yildan 90 gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llayapmiz, — deydi korxonada rahbari Baxtiyor Ahmedov. — Chigit qo'shqator usulda ekilgani bois har gektar maydonda 120—130 ming tup g'o'za parvarishlanayapti. Bu gektaridan 50 sentnerdan sara paxta olinishini ta'minlaydi. Eng muhimi, sug'orish ishlari pulklar yordamida boshqarilishi hisobiga shuncha gektar maydonda parvarishlash bilan bor-yo'g'i 2-3 kishi shug'ullanadi.

Mediatur qatnashchilari suv va mehnat sarfini kamaytiradigan, oz mablag' sarflab, yuqori hosil yetishtiradigan bu usulning har jihatdan afzalligiga ishonch hosil qildilar.



## Sayxun yoshlariga qulaylik

Prezidentimiz joriy yilning 19-fevralida viloyatga tashrifi chog'ida 5 ta yo'nalishda "Sirdaryo tajribasi" tashabbusini ilgari surgan edi. Ana shu tashabbus doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning har tomonlama sog'lom va yetuk insonlar bo'lib yetishishiga qulay shart-sharoitlar yaratish viloyatda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan ishlarning bosh mezonini etib belgilandi. Yoshlarni musiqa va san'at maktablari, madaniyat muassasalariga jalb etish, ularning dunyoqarashini kengaytirish "Sirdaryo tajribasi"ning eng asosiy yo'nalishlaridan sanaladi. Ayni vaqtda madaniyat muassasalaridagi turli to'garaklarda 7 333 nafardan ziyod yoshlar qatnashyapti. Ularning sport bilan shug'ullanishi uchun shu yil oxirigacha 18 ta sun'iy qoplamali maydon, 7 ta yangil konstruksiyali sport zali barpo etildi.

Mirzaobod tumanidagi raqamli texnologiya o'quv markazi viloyatdagi qaldirg'och markazlardan hisoblanadi. 20 ta kompyuter jamlanmasi o'rnatilgan markazda 9 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar kompyuter savodxonligini oshirish bilan birga internet tarmoqlari orqali dunyo voqealaridan xabarlar bo'ladi, bilim olish uchun zarur dasturlardan samarali foydalanadi.

## "Oson emas bu maydon ichra turmoq..."

Viloyatda keng ko'lmda davom ettirilayotgan qurilish, bunyodkorlik ishlari, yangi sanoat korxonalarining barpo etilishi, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Obod markaz" dasturlari doirasida keyingi ikki yilda bajarilgan ishlar har qanday kishining hayratini oshiradi. Moliyaviy qaramlikka tushib qolgan viloyatning qisqa davrda ulkan industriyalashgan viloyatlardan biriga aylana-yotgani Prezidentimiz tomonidan belgilan berilgan loyihalarining katta mehnat, ijodiy tashabbuskorlik evaziga ro'yobga chiqarilayotganini anglatadi. Birgina o'tgan yili viloyatda 111,4 million dollarlik mahsulotlar xorijiy davlatlarga eksport qilindi.

## Xovos emas, Havas...

Yaqin ellik yil ichida birorta ham ko'p vaqatli uy qurilmagan, odamlarning ma'lum qismi eski baraklarda yashagan

Xovos shaharchasi, umuman, Xovos tumaniga Prezidentimizning shu yil fevral va iyul oylaridagi tashrifidan keyin bunyodkorlik, yaratuvchanlik to'lqini kirib keldi. Tuman markazida ulkan qurilish, avvalda mavjud bo'lgan uylarning arxitekturaviy qiyofasini o'zgartirish ishlari jadal olib borilmoqda. 30 ta ko'p qavatli uyni qurish ishlari shiddat bilan davom ettirilyapti. Qurilish ishlari tugagach, 760 ta kvartira o'z sohiblariga topshiriladi. Shuning 600 tasi arzon uylardir. Bundan tashqari, yangi markazda 60 ta bir qavatli uy, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, Davlat xizmatlari agentligi, maktab, bog'cha, istirohat bog'i, kutubxona, kitob do'koni, kinoteatr, dehqon bozori, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shuningdek, 2 ta tikuvchilik sexi quriladi. Xovos eng zamonaviy, odamlar yayrab yashaydigan shaharchaga aylanadi.

## Cho'l bag'ridagi chaman

O'tgan qisqa davrda Guliston shahrida ulkan obodonlashtirish, qurilish ishlari amalga oshirildi. Hozir ham shaharda qurilish, bunyodkorlik ishlari to'xtagani yo'q. Kechagina "Buyuk kelajak" massivi odamlar mol boqadigan, qarovsiz bir hudud edi. O'tgan ikki yarim yil ichida bu yerda 32 ta besh qavatli zamonaviy turarjoy binosi qurildi. Ayni vaqtda bu yerda ilk bor 7 qavatli uylarni qurish ishlari boshlab yuborildi. Massivda oz emas, 420 ta xonadon egalari barcha shart-sharoitlar yaratilgan, bolalar o'yin maydonchalarigacha qurilgan go'shada baxtli turmush kechirmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qurilayotgan O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktab-internati me'moriy jihatdan mamlakatimizdagi eng zamonaviy ta'lim muassasalaridan biriga aylanadi. Shu yilning o'zida eng iqtidorli, test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan o'g'il-qizlar shu maktabda o'qiy boshlaydi. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Abdushokir Abdurahmonov ijod maktabining istiqboli haqida gapira turib, bu yerda o'qish uchun faqatgina Sirdaryodan emas, qo'shni viloyatlardan ham iqtidorli o'quvchilar hujjatlar topshirayotganini aytdi. Shaharda shunday ilm maskanining barpo etilishi yoshlarga, kelajagimiz egalari qo'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning yorqin ifodasidir.

Asolat AHMADQULOVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

Millat mulki

# “Gapda ravishlar soni nechta?..”

## yoxud uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida ravish qanday o'qitilishi kerak?

Tilshunoslik fani paydo bo'lganidan hozirga qadar so'zlarni turkumlash masalasi mutaxassislarining e'tiborini jalb qilgan va bu borada hanzunozaralar davom etib kelyapti. So'z turkumlari tarixini kuzatib ekanimiz, hindlarning ham, arablarning ham, yunonlarning ham tasnifida, avvalo, nutq uchun muhim bo'lgan so'zlar — fe'llar va otlar ajratilganining guvohi bo'lamiz. Aniqlik, so'zlarning ibtidoiy tasnifi Sharqda ham G'arbda ham, asosan uch guruh: harakat bildiradigan so'zlar (fe'l), nimanidir (narsa, belgi, miqdor, harakat, holat kabi) nomlaydigan so'zlar (ot/ism) va shu har ikki guruhga kirmaydigan so'zlardan (yordamchi so'zlar) iborat edi. Keyinchalik bu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi o'laroq so'z turkumlari chegarasi va qamrovi aniqlandi, har bir turkumning tasnifiy belgilari ishlab chiqildi. Biroq, shuni ham aytib o'tish kerakki, tabiatda, jamiyatda bo'lgani kabi so'zlarda evolutsiya — ma'no taraqqiyoti kuzatiladi. So'zning bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish bosqichi ba'zan asrlab davom etadi va bu, o'z navbatida, so'zni turkumlarga ajratishda davomli muammolarni keltirib chiqaraveradi.

Ma'lumki, maktab grammatikasi ko'p hollarda eng umumiy nazariy bilimlarni qamrab oladi. Nafaqat o'zbek, balki jahon tilshunosligida hali to'la yechimini topmagan, munozarali, javobsiz savollar borki, ularning javobini ba'zan bilib-bilmay oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonlarini topshirayotgan o'quvchidan talab qilishimiz ajablanarli.

Ayni paytda o'zbek tilshunosligida so'zlar uch katta guruh:

1. Mustaqil so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh).
2. Yardamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).
3. Oraliqdagi so'zlar yoki alohida so'zlar (undov, taqlid, modal, tasdiq va inkor) bo'lib o'qitiladi.

Dastlabki tasniflarda mustaqil so'zlar otlar (ismlar) va fe'llardan tashkil topgan. Tasnifning takomillashishi bilan bog'liq keyinchalik ismlar ichidan sifat (belgi nomi), son (miqdor nomi), olmosh ajralib chiqadi va mustaqil so'zlar soni beshtaga — ot, sifat, son, olmosh, fe'lga yetkaziladi. Ayni paytda ham rus tilshunosligida ushbu so'zlarga ismlar sifatida qaraladi: имя существительное (ot), имя прилагательное (sifat), имя числительное (son), местоимение (olmosh) kabi. Mustaqil so'zlar tasnifida eng keyin paydo bo'lgan so'z — bu ravishdir.

Ravishlar ma'no va vazifasiga ko'ra ot, sifat, son, olmoshlarga yaqin so'zlar bo'lib, bu arab va Yevropa tilshunosligida ham qayd etiladi. Murakkab tabiiy tilshunoslikda ravishni o'rganishning o'ziga xos tarixini yuzaga keltirgan. D.R.Koposov rus tilshunosligida ravishlar tadqiqi tarixi bilan shug'ullanar ekan, M.V.Lomonosov ravishlarni undov va olmoshlar, M.V.Panov sifatlarning bir ko'rinishi sifatida qaragan, ulardan farqlanib K.S.Aksarov va F.I.Buslayev ravish morfologik hodisa — so'z turkumi emas, sintaktik birlik deb qaragan, A.A.Potebnya ularning sintaktik tomonlarini inkor qilmagan holda, belgining belgisini bildiradigan so'z sifatida so'z turkumlariga qaytargani, A.M.Peshkovskiy ham ravishni sintaktik kategoriya deb atab, unga so'z turkumi emas, so'zshakl sifatida qaragan, A.A.Shaxmatov so'z turkumlari sirasiga

kiritib, sifatga yaqinligini e'tirof etgani, F.F.Fortunatov esa o'zgarma so'zlar sifatida baholaganini keltirib o'tadi. (Копосов Д.Р. Наречие. Динамика классификации феномена. // Ученые записки Казанского государственного университета. Том 150, кн. 6. Гуманитарные науки, 2008.) Ravishlarni atroflicha o'rganigan V.V. Vinogradov unga “mustaqil so'zlarning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'zlar ravish turkumiga yig'ilgan”, degan haqqoniy bahoni beradi. (Виноградов В.В. Русский язык. — М., 1972. — С. 303.)

O'zbek tilshunosligida ravishni o'rganishda rus tilshunosligida ravishlar tadqiqi bilan bog'liq dastlabki an'analar yetakchilik qilib kelgan. Sharq va G'arb tilshunosligi ravishlarni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi — o'zgarma belgisi bilan ismlardan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qarilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darsliklarda ravishlarning o'zgarma belgi tabiiy inobatga olinmaydi. Fitrat sharqona an'ana ta'sirida so'z turkumlarini to'rtga: ot, sifat, fe'l, ko'makchiga ajratadi. Ravishni esa ot, sifat va ayrim ko'makchilar (yordamchi so'zlar) ichiga kiritadi. (Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. 1-jild “Mumtoz so'z” nashriyoti. Darslik. Toshkent. 2008-yil.)

Maktabda ravish mavzusi bilan bog'liq asosiy muammo yasama ravishlarni o'qitishga aloqador. Ma'lumki, o'zbek tilida so'z yasashning bir necha turi mavjud bo'lib, ona tili ta'limida yasama so'z deganda so'z yasashning ikki asosiy turi — affiksatsiya(yasovchi qo'shimcha yordamida so'z yasash) va kompozitsiya(so'zga so'z qo'shish yo'li orqali so'z yasash) usullari yordamida yasalgan so'zlar nazarda tutiladi. Bu, bir tomondan, to'g'ri. Negaki, ona tili darsliklarini ilmiylashtirish, grammatikalizatsiyaga yo'l qo'ymaslik talabi bunga monelik qiladi. Ammo o'quvchi OTMga kirish imtihonlari uchun ravish mavzusi bo'yicha tuzilgan DTM savollari-ga javob berishda faqat affiksatsiya va kompozitsiyaga asoslansa, xatoga yo'l qo'yadi. Masalan:

Tez-tez, nari-beri, qo'yarda-qo'yamay, unda-bunda, uzil-kesil. Ushbu qatorda

ravish+ravish juftlanishi orqali yasalgan yasama ravishlar soni nechta?

A) 5 ta B) 1 ta D) 4 ta E) 3 ta

To'g'ri javob: B) 1 ta; nari-beri — yasama ravish. Ilmiy jihatdan bu yerda derivatsiya (til unsurlarining nutqqa ko'chirilishi) bor, lekin o'quvchi buning yasalish ekanini tushunmaydi. Akademik litseylarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligidagi “So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ham ravish yasash mumkin. Masalan, nari-beri, hali-beri, naridan beri, erta-inda, tez-tez, juda-juda, qadam-baqadam singari ravishlarga e'tibor bersangiz, ularda bir so'zning takrorlanishi yoki o'zaro ma'nodosh va zid ma'noli ikki so'zning juft keltirilganligining guvohi bo'lasiz. Masalan, tez-tez (bir so'zning takrori), eson-omon (ma'nodosh so'zlarning juftlashishi), avval-oxir, erta-kech (zid ma'noli so'zlar juftlashishi).

Bunday ravish qismlari o'rtasiga yozuvda doimo chiziqcha qo'yib yoziladi; “Juft va takroriy so'zlar hamda ularning sinonimiyasi” mavzusida yo'l-yo'lakay: “So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasalganda, ular quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi:

1. Ot-ot (qator-qator, tun-kun, yildan yilga).
2. Sifat-sifat (uzundan uzun, ochiqdan ochiq).
3. Fe'l-fe'l (uzil-kesil, turib-turib, qo'sha-qo'sha, qo'yarda-qo'yamay, bilinar-bilimmas).
4. Olmosh-ravish (oldinma-keyin, nari-beri).
5. Olmosh-olmosh (o'z-o'zidan, o'z-o'zicha, o'zidan o'zi).
6. Son-son (birma-bir).
7. Taqlid so'z-taqlid so'z (taqa-taq, shart-shurt) va boshqalar” (Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 2-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq. — T.: “ILM ZIYO”, 2010. — 277-b.) kabi uzoq-yuq fikrlarni hisobga olmaganda, maktab darsliklarida so'z yasashning bu turi xususida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Ammo bu DTM savollar bazasida quyidagi tipdagi bir qancha test savollarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi:

Hamisha, dastlabki, ustma-ust, galma-gal, do'stona, o'rtadagi, taxminan, nari-beri. Yuqoridagi berilganlardan yasama ravishlar sonini aniqlang.

A) 5 ta B) 3 ta D) 7 ta E) 6 ta. To'g'ri javob: E) 6 ta.

Berilgan so'zlardan nechitasi yasama ravishlar sanaladi? Birin-ketin, saharlab, olg'a, har gal, vaqtincha, ertalabki, tiriklayin, bir mahal.

A) 4 ta B) 5 ta D) 6 ta E) 7 ta. To'g'ri javob: C) 6 ta.

Quyidagi gapda nechta ot turkumiga mansub so'z qatnashgan? Qo'qqisdan osmonni bulut qoplaydi-da, chelak-chelak suv quyadi.

A) 2 ta B) 5 ta D) 3 ta E) 4 ta

To'g'ri javob: D) 3 ta. Bu o'rinda o'quvchining chelak-chelak so'zini ravish yoki ot ekanini bilishi nazarda tutilgan.

Holat ravishi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A) Kunduzlari quyosh saratondagiday qizdirib turdi. B) Bahorda paxtakor uchun vaqt oz, mehnat esa cheksiz mo'l. D) G'ulomjon otasi yonida turib atayin atrofqa qaradi. E) Sayohatchilar yuqoriga ko'tarilib qarag'ayzor va archazorga yetdilar.

Berilgan gaplarda holat ravishi ishtirok etmagan. Agar saratondagiday nazarda tutilayotgan bo'lsa, bu ravish emas.

Qaysi qatordagi ajratib ko'rsatilgan ravishlar turlanmagan? A) Ishimizdan ertaming shabadas kelib turibdi, o'g'lim. B) Baxt axtarib yurgan ko'plarni bilaman. D) Hozirning o'zida uning dong'i dunyoga ketgan. E) G'ulomjon orqadan qarabiqoldi.

Ravish turlanmaydi. Hozirning o'zi nazarda tutilayotgan bo'lsa, ushbu so'z bu o'rinda asli ot ekanligini namoyon etyapti. Shuningdek, keyingi yillarda to'xtovsiz, sababsiz, vaqtli, noiloj, bevaqt, barvaqt kabi so'zlar tarkibida kelishi asos qilib olinib, -siz, be-, -li, bar-, no-qo'shimchalarining ham ravish yasashi va ularning shakldosh qo'shimcha ekaniga ishora qiluvchi savollar paydo bo'lmoqda. Bunda yasalish asli sifatida yuz bergan va bu so'zlar shu holda konversiyaga uchrab, ravishga ko'chgan. Bu jarayonni esa o'quvchiga tushuntirish qiyin.

Ravishlarning uzoq davrlar mobaynida so'z turkumlari sirasida o'z o'rnini topa olmagan va hanzunozar borada fikrlar qat'iy emasligining asosiy sababi “ravishlashish” yo'llarining ko'pligidir. Ayni paytda mavjud darslik va qo'llanmalarda so'z turkumi sifatida umumiy grammatik ma'nosi “Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgarma so'z” deb berilayotgan ravishning ta'rifiga tushadigan so'z ravishlar o'zbek tilida sanoqlik. Ravish faqat affiksatsiya yoki kompozitsiya yo'li bilan emas, balki katta miqdorda ko'chish — reduplikatsiya, konversiya, morfologizatsiya hisobidan kengayib bormoqda.

Shuningdek, ravishlardagi diaxronik (tarixiy) yasalishlarning (qishin-yozin, birin-ketin, oldin, ochin-to'qin, ostin-ustin kabi) ham savollarga tortilishi boshqa mavzuga doir savollarga javob berishda muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan:

Qaysi qatorda omonin qo'shimchalar qo'llanmagan? A) chiziq-tiniq, bosqin-sotqin B) birin-ketin, qishin-yozin D) qing'in-so'lg'in, chirik-elak E) Dilafro'xon-kitobxon, do'sti-boyi. To'g'ri javob: B.

Berilgan ravishlardan qaysi biri tarkibidagi qo'shimcha bugungi kunda ajratilmaydi? A) birin-ketin, ostin-ustin B) so'ngira, uzra D) qayta, ko'tara E) hammasi ajratilmaydi.

O'quvchi “A” javobini to'g'ri variantdan chiqaradi, sababi yuqorida keltirilgan litsey darsligida ravish yasovchilar sirasida bu qo'shimcha olinib, aynan shu misollar keltiriladi: “-n (-in, -un): ertan-kechin,

qishin-yozin, ochin-to'qin, ostin-ustin” (2, 184). Ilmiy jihatdan va o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib yondashilsa, to'g'ri javob yo'q.

Mavjud grammatikalarda ravish yasovchi qo'shimchalarning ajratilishi, miqdori borasida ham bir xillik kuzatilmaydi: -cha, -larcha, -chasisga, -iga/-siga, -lab, -deb, -day, -ona, -an, -n(-in), -lay /-layin, -n(-in, -un), -simon, -gacha, -noma va boshqa. Shuni aytib o'tish kerakki, bu qo'shimchalardan aksariyatining ravish yasovchi ekanligi ham munozarali.

Umuman, o'zbek tilshunosligida ravishlarda so'z yasalihi o'tgan asr oxirlaridayoq inkor etilgan edi. “...mustaqil so'z turkumlari sifatida qaralayotgan turkumlarining ayrimlari, jumladan, ravish turkumi so'z yasalihi tizimiga ega emas va buning obyektiv sabablari bor”. (A.Хожиев, А.Нурмонов, Н.Махмулов. Спорные вопросы в системе словообразования тюркских языков // С.Т., 1989, №2.)

So'z yasalihi, xususan, ravish yasalihi bo'yicha salmoqli ishlarni amalga oshirgan akademik A.Hojiyev hatto eng faol ravish yasovchilar sifatida maktab grammatikalarda sanaladigan -cha, -larcha, -chasisga, -iga /-siga, -lab, -an, -ona kabi qo'shimchalarning ham ravish yasovchi emasligini birma-bir misollar asosida asoslaydi va “Ma'lum bo'ladiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida sistema tarzida ravish yasaydigan bironta ham affiksall morfema yo'q. Darslik va qo'llanmalarda, shuningdek, ilmiy ishlarda ravish yasovchi deb berilganlarning birortasi ham ravish yasovchi qo'shimcha, hatto, umuman, so'z yasovchi qo'shimcha emas” degan qat'iy xulosaga keladi. (A.Hojiyev. O'zbek tili va adabiyoti. 2000-yil, 2-son, 42—46-betlar.)

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin, hozirgi o'zbek tilida ravishlar boshqa mustaqil so'zlardan farqlanib bir necha yo'llar bilan:

affiksatsiya — yasovchi qo'shimchalar vositasida ravish yasash: vaqtincha, yashirincha, hozircha, avvalgicha, yangi-cha, mardlarcha, yoppasiga, uzunasiga, rostakamiga, nomiga, ko'plab, haftalab, shaklan, taxminan, qishin-yozin, ahmoqona, oldin, ochin-to'qin, ostin-ustin;

kompozitsiya — so'zga so'z qo'shish orqali ravish yasash: u yerga, bu yerda, shu yerdan, o'sha yoqdan, bu oraga, shu o'rtada, har yerda, har tomonda, biryo'la, birpasga;

reduplikatsiya — ot, sifat, olmosh, fe'l, ravish, taqlid kabi so'zlarning takror yoki juftlashib ravishga aylanishi: qop-qop, savat-savat, es-es, nari-beri, oz-oz, kam-kam, uncha-muncha, shu-shu, o'sha-o'sha, hali-beri, eson-omon, kundan-kun, zo'r-bazo'r, gul-gul, ayrim-ayrim, pishiq-pishiq, ozib-yozib, uzil-kesil, o'z-o'zidan, o'zidan o'zi, vaqti-bevaqt, taqa-taq, shartta-shartta;

morfologizatsiya — jo'nalish, o'rinsay, chiqish kelishliklari, shuningdek, ayrim egalik shakllari, ko'plik shaklidagi ot, sifat, olmosh, son kabi so'zlarning ravishga aylanishi: baxtimizga, kunda, yoddan, to'g'riga, uzoqdan, yaqinda, birdan, birga, shunda, bunda, unda-bunda, kechasi, kunduzi, tunlari, oqshomlari;

konversiya (adverbializatsiya) — bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zning boshqa kategoriyaga ko'chishi — ayrim ot, sifat, fe'l kabi so'zlarning ravishlashishi: erta, indin, kecha, kech, kechqurun, burun, hozir, yaqqol, baralla, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, rosa, baravar, uzluksiz, omonsiz, beomon, o'zgarishsiz, harakatsiz, to'xtovsiz, beto'xtov, o'sha, o'ta, qiya, qiyo, qo'sha, qayta kabi kengayish imkoniyatlariga ega.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari yuzasidan bajarilgan so'nggi tadqiqotlarda: “Maktab grammatikalarida esa yuz yillarki, mustaqil va yordamchi so'zlar, har ikkalasidan ham farq qiluvchi so'zlar guruhi juz'iy farqlar bilan aks ettirib kelinmoqda” (Z.Is'hoqov. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rni. Qo'qon, 2011), “Umuman, tilshunosligimizda hozirgacha so'z turkumlariaro ko'chishning juz'iy masalalari qalamga olingan, ko'chish faqat bir yoki bir necha so'z turkumi doirasidagina olib tekshirilgan, xolos. So'z turkumlari aro aloqa va ko'chishning yirik muammolari, xususan, ko'chishning tafakkuriy, lisoniy va nutqiy asoslari, mustaqil so'z turkumlariaro ko'chish, mustaqil so'zlarning yordamchi so'z turkumlari bilan aloqasi va o'zaro ko'chishi, alohida guruhdagi so'zlarning mustaqil va yordamchi so'z turkumlari bilan aloqasi va o'zaro ko'chishi, grammatikalizatsiya hodisalari tadqiqotchilar e'tiborida chetda qolib kelmoqda” (J.Eltazarov So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish holatlari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. — 168-b.) kabi xulosalarga kelinishiga ham yuqoridagi holatlar asos bo'lgan.

Joriy darsliklarda: “Ravish yasovchi -larcha qo'shimchasidagi -cha qismi kabi, singari ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ular ko'pincha almashtirib qo'llaniladi. -cha o'rni -dek, kabi, singari ko'makchilarini qo'shish mumkin bo'lsa, u ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ham ravish yasash mumkin” (AL, 184) kabi tilshunoslikda hali to'la yechimini topmagan xulosalarning berilishi ushbu qoidalar asosida kirish imtihonlarida munozarali, javobsiz savollarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Umuman, o'zbek tilshunosligida ravish yasalihi masalasiga zamonaviy yondashuvlar — til unsurlarining nutqqa ko'chirilishi muammosi bilan bog'liq derivatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan yondashish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, ravishning ma'no turlarini ajratish bilan bog'liq murakkabliklar (uzoqdan, yaqinda, unda-bunda kabi ravishlarning kontekstida payt, o'rin, holat ravishlari bo'lib kela olishi), darsliklarda so'zning hatto ravish ekanligini aniqlash munozarali ekanligi (masalan, hech, sira, aslo kabi so'zlar dam ravish, dam yuklama, dam olmoshda uchrashi, ravishga to'la ko'chib ulgurmagani ayrim ot, sifat, fe'larning ravish deb talqin etilishi), qolaversa, nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligida bu mavzuni o'rganishda xilma-xilliklar mavjudligi maktabda ravish o'qitish masalasiga yangi yondashishni taqozo qilmoqda.

Bashorat BAHRIIDINOVA, QarDU “O'zbek tilshunosligi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi

# Aslini aytaylik!

Bugungi kunda til mavzusi barchaning e'tibor markazida. Ozmi-ko'pmi, tilimiz taqdiri bilan qiziqqan har bir yurtdoshimiz bu mavzuga qo'l urmoqda. Sababi, shunga majbur bo'lyapmiz. Oltin teng tilimizning qadriga yeta olmayapmiz.

Barcha hayvon va jonivorlarning, parranda-yu darrandalarning xalq o'zi qo'yg'an nomlari bor. Biroq o'sha atamalardan hatto ba'zi o'zini savodxon hisoblagan oliy ma'lumotli, ziyoli insonlar ham kam foydalanadi.



G'aliz va o'rsinsiz qo'llanayotgan so'z va iboralar: “Har bosh ona qo'ydian... qo'zi oldik”, “Ona tovuq tuxum berdi”, “Otning bolasini ko'rdim”, “Itning bolasi”, “Ona bo'ri ko'rindi”, “Sigirning bolasini bog'la” kabi juda ko'plab so'z va iboralar aytilishi odamning ta'bini xira qiladi. Axir, har birining o'z nomi bor-kul! Har bir narsaning o'z nomi, tilshunoslikda kiritilgan istilohlari bor. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy:

Qancha qilsang tarbiya xo'tik birla kuchukni, It bo'lur, eshak bo'lur, aslo bo'lmas odami, — deydi.

U xo'tikni — eshakning bolasi, kuchukni — itning bolasi demagan. Ona it, ona qo'y, ona tovuq, ona quyon, ona tuya... bunday nojoiz birikimlarni ko'plab keltirish mumkin. Axir, ona qo'y emas — sovliq, ona tovuq emas — makiyon, ona ot emas — baytal, biya, ona cho'chqa emas, — megajin, erkak it emas — arslon it, ota ot emas ayg'ir deyilsa, tilimizning boy va rang-barangligi yaqqol ko'rinadi.

1989-yili o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi amalda tilimiz ravnaqi uchun butunlay yangi davrni boshlab berdi. Bunga qariyb 30 yil bo'ldi. Lekin biz haligacha ona tilimizning ichki imkoniyatlaridan, adabiy tilimizning tunganmas behavo boyligidan to'liq foydalanayotganimiz yo'q. Adabiy tili boyitish uchun juda ko'p kerakli so'z va iboralarimiz puxta o'rganib, saralab, til, lug'at boyligiga kiritish vaqti allaqachon kelgan. Bu sohada tilshunos, dialektolog, tarixchi, etnograf, atamashunos olimlar tilimizning soffiigi va boyligi uchun fidoyilik ko'rsatsalar, nur ustiga nur bo'lar edi. Afsuski, bu dolzarb sohaga e'tibor negadir sust.

Agar tez orada bu sohaga kirishilsa, o'zbek tilining lug'at boyligi hozirgidek 80 ming emas, 100, hatto 120 ming so'zdan iborat bo'lish imkoniyati bor. O'zbek tili 24 ta yirik turkiy tillar tarmog'ida tarqalishi bo'yicha turk tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Mirzahammad BOYMURODOV, Bekobod tumani



**Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim QORAQALPOQ tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar RO'YXATI**

T/r	Darslik va o'quv qo'llanma nomi	Muallifi	Tavsiya etilgan yili	Ta'minlanish holati
<b>1-sinf</b>				
1	Alifbe (A'lipbe)	Q.Xojamurotova va b.	2019	Bepul
2	Yozuv daftri	A.Dao'letov va b.	2019	Bepul
3	O'qish kitobi (Oquv kitabi)	B.Qulimuratov va b.	2019	Bepul
4	Ona tili (Ana tili)	B.Qulimuratov va b.	2019	Bepul
5	Matematika	M.Ahmedov va b.	2019	Bepul
6	Matematika daftri	M.Jumayev va b.	2019	Bepul
7	Atrofimizdagi olam	N.Mansurova va b.	2019	Bepul
8	Tasviriy san'at	R.Hasanov	2019	Bepul
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Bepul
10	Odbonoma	O.Hasanboyeva va b.	2019	Bepul
11	"Kids' English"	M.Irisqulov va b.	2019	Bepul
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dada'ov javeva va b.	2019	Bepul
13	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2019	Bepul
14	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2019	Bepul
<b>2-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2018	Ijara
2	Ona tili (Ana tili)	B.Qulimuratov va b.	2018	Ijara
3	O'qish kitobi (Oquv kitabi)	B.Qulimuratov va b.	2018	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Z.Abduraimova	2018	Ijara
5	Matematika	N.Abdurahmonova va b.	2018	Ijara
6	Atrofimizdagi olam	P.G'ulomov va b.	2018	Ijara
7	Odbonoma	O.Hasanboyeva va b.	2018	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2018	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2018	Ijara
10	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2018	Ijara
11	"Kids' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
12	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
13	"Deutsch mit Spaß"	M.Dada'ov javeva va b.	2018	Ijara
14	"Arbeitsheft"	M.Dada'ov javeva va b.	2019	Ijara
15	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2018	Ijara
16	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
17	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2018	Ijara
<b>3-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Ona tili (Ana tili)	Y.Dao'enov va b.	2019	Ijara
3	O'qish kitobi (Oquv kitabi)	B.Qalimbetov va b.	2019	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	N.Sergeyeva va b.	2019	Ijara
5	Matematika	S.Burbonov va b.	2019	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2019	Ijara
7	Odbonoma	M.Xoligova va b.	2019	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2019	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2017	Bepul
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dada'ov javeva va b.	2017	Bepul
13	"Arbeitsheft"	M.Dada'ov javeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2017	Bepul
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2019	Ijara
<b>4-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2017	Ijara
2	Ona tili (Ana tili)	Y.Dao'enov va b.	2017	Ijara
3	O'qish kitobi (Oquv kitabi)	Y.Berdimuratov va b.	2017	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Karimova va b.	2016	Ijara
5	Matematika	N.Bikbayeva va b.	2017	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2017	Ijara
7	Odbonoma	M.Xoligova va b.	2017	Ijara
8	Musiqi	O.Ibrohimov	2017	Ijara
9	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2017	Ijara
10	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2017	Ijara
11	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
12	"Kids' English"	S.Xan va b.	2016	Bepul
13	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
14	"Deutsch mit Spaß"	M.Dada'ov javeva va b.	2016	Bepul
15	"Arbeitsheft"	M.Dada'ov javeva va b.	2019	Ijara
16	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2016	Bepul
17	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
<b>5-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2015	Ijara
2	Ona tili (Qaraqalpaq tili)	Y.Berdimuratov va b.	2015	Ijara
3	Adabiyot (A' debiyat)	J.Pimiyazov va b.	2015	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Y.Musurmonova	2016	Ijara
5	"New Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Z.Qiyomova va b.	2017	Bepul
7	"Je parle français"	A.Nosirov va b.	2017	Bepul
8	Tarixdan hikoyalar	U.Jo'rayev va b.	2015	Ijara

9	Matematika	B.Haydarov	2015	Ijara
10	Botanika	O'.Pratov va b.	2015	Ijara
11	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)	P.G'ulomov va b.	2015	Ijara
12	Informatika	D.Kamoliddinova	2016	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Musiqi	A.Mansurov va b.	2015	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2015	Ijara
16	Tasviriy san'at	T.Qo'ziyev va b.	2015	Ijara
17	Jismoniy tarbiya	T.Usmonxo'jayev va b.	2015	Kutubxona fondi
<b>6-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Ona tili (Qaraqalpaq tili)	M.Dao'letov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (A' debiyat)	K.Palimbetov va b.	2017	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	G.Gaslova va b.	2017	Ijara
5	"Teens' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2018	Ijara
7	"Voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2018	Ijara
8	Tarix qadimgi dunyo	A.Sa'dullayev va b.	2017	Ijara
9	Matematika	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
10	Fizika	N.Turdiyev	2017	Ijara
11	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2017	Ijara
12	Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografyasi)	A.Seatov va b.	2017	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
15	Musiqi	S.Begmatov	2017	Ijara
16	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
17	Tasviriy san'at	Q.Mirahmedov va b.	2017	Ijara
18	Jismoniy tarbiya	T.Usmonxo'jayev va b.	2015	Kutubxona fondi
<b>7-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Ona tili (Qaraqalpaq tili)	M.Dao'letov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (A' debiyat)	K.Mambetov va b.	2017	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Islombekova va b.	2017	Ijara
5	"Fly High English"	S.Xan va b.	2019	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2019	Ijara
7	"Bon voyage"	S.Umarova va b.	2019	Ijara
8	O'zbekiston tarixi	A.Muhammadjonov	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	T.Salimov va b.	2017	Ijara
10	Algebra	Sh.Alimov va b.	2017	Ijara
11	Geometriya	A.A'zamov va b.	2017	Ijara
12	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
13	Fizika	P.Habibullayev va b.	2017	Ijara
14	Kimyo	L.Asqarov va b.	2017	Ijara
15	Biologiya (Zoologiya)	O.Mavlonov	2017	Ijara
16	Geografiya (O'rta Osiyo tabiiy geografyasi, O'zbekiston tabiiy geografyasi)	P.G'ulomov va b.	2017	Ijara
17	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
18	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
19	Musiqi	O.Ibrohimov va b.	2017	Ijara
20	Jismoniy tarbiya	T.Usmonxo'jayev va b.	2017	Kutubxona fondi
21	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	M.Qarshiboyev va b.	2015	Ijara
<b>8-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova	2019	Ijara
2	Qaraqalpaq tili (Qaraqalpaq tili)	M.Dao'letov va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (A' debiyat)	K.Mambetov va b.	2019	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Rojnova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2014	Bepul
7	"Le nouveau voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	U.Jo'rayev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	R.Farmonov va b.	2019	Ijara
10	O'zbekiston davlati va huquqiy asoslari	O.Karimova va b.	2019	Ijara
11	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
12	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
13	Geometriya	A.Rahimqoriyev	2019	Ijara
14	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
15	Kimyo	L.Asqarov va b.	2019	Ijara
16	Biologiya (Odam va uning salomatligi)	O.Mavlonov va b.	2019	Ijara
17	Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-jimoiy geografyasi)	P.Musayev va b.	2019	Ijara

18	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	R.Qo'chqorov va b.	2015	Ijara
19	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	O'.Tohrov va b.	2019	Ijara
<b>9-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Qaraqalpaq tili (Qaraqalpaq tili)	M.Davo'letov va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (A' debiyat)	K.Mambetov va b.	2019	Ijara
4	Русский язык (O'zbek tili va qardosh tillar uchun)	R.Uzmanova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Deutsch"	M.Dada'ov javeva va b.	2014	Bepul
7	"D'un Etat a l'autre"	S.Rahmonov va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	S.Tillaboyev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	M.Lafasov va b.	2019	Ijara
10	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	G.Taniqboyeva va b.	2019	Ijara
11	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
12	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
13	Geometriya	B.Haydarov va b.	2019	Ijara
14	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
15	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
16	Kimyo	L.Asqarov va b.	2019	Ijara
17	Biologiya sitologiya va genetikasi asoslari	A.Zikriyayev va b.	2019	Ijara
18	Geografiya (Jahon iqtisodiy-jimoiy geografyasi)	A.Qayymov va b.	2019	Ijara
19	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	O.Musurmonova va b.	2015	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	Z.Sattorova va b.	2019	Ijara
<b>10-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Qaraqalpaq tili	E.Berdimuratov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot	K.Mambetov va b.	2017	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Islombekova va b.	2017	Ijara
5	"English"	F.Rashidova va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Sh.Inyaminova va b.	2017	Bepul
7	"France"	Z.Davronova va b.	2017	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	Q.Rajabov va b.	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2017	Ijara
10	Dunyo dinlari tarixi	Z.Islomov va b.	2017	Ijara
11	Davlat va huquq asoslari	V.Kostetskii	2017	Ijara
12	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2017	Ijara
13	Matematika (algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2017	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2017	Ijara
16	Organik kimyo	A.Mutalibov va b.	2017	Ijara
17	Biologiya	A.G'afurov va b.	2017	Ijara
18	Geografiya (Amaliy geografiya)	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2017	Ijara
<b>11-sinf</b>				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2018	Ijara
2	Qaraqalpaq tili (Qaraqalpaq tili)	Sh.Abdinazimov va b.	2018	Ijara
3	Adabiyot (Qaraqalpaq a' debiyati)	K.Allambergenov va b.	2018	Ijara
4	Русский язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Islombekova va b.	2018	Ijara
5	O'zbekiston tarixi	N.Jo'rayev va b.	2018	Ijara
6	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2018	Ijara
7	Dunyo dinlari tarixi	Z.Islomov va b.	2018	Ijara
8	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2018	Ijara
9	Davlat va huquq asoslari	N.Ismatova va b.	2018	Ijara
10	Tadibkorlik asoslari	U.G'ofurov va b.	2018	Ijara
11	Matematika (algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2018	Ijara
12	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2018	Ijara
13	Biologiya	A.G'afurov va b.	2018	Ijara
14	Astronomiya	M.Mansuriddinov	2018	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2018	Ijara
16	Umumiy kimyo	S.Masharipov va b.	2018	Ijara
17	"English"	F.Rashidova va b.	2018	Ijara

Umr — saboq

# Farzandlarimizni televizor emas, bobo-buvilari tarbiyalasin!

Hayot tashvishlari bilan kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o'tib boraverarkan. So'nggi vaqtlarda "Vaqt buncha tez o'tib ketmasa", "Yer shari har doimgidan tez aylanmoqdami?", "Kecha dushanba edi, mana bugun shanba-ya!" kabi gaplar tez-tez quloqqa chalinadi.

Bolalik davrlarimni eslasam, vaqt bir muddat sekinlashganday tuyuladi. Kattalar birmuncha mehr-oqibatli edi. Qarindoshlar bir-biridan tez-tez xabar olardi. Ayniqsa, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida oqibat kuchli edi. Lekin o'sha davrda ham uy-ro'zg'or tashvishlari hozirgidek mo'l-ko'l bo'lgan...

Buvimning hovlisida xola-yu tog'alarim oilalari bilan tez-tez yig'ilib turishardi. Bu yig'inlarda, ayniqsa, biz bolalarga maza bo'lardi. Turli o'yinlar o'ynab vaqt o'tganini sezmasdik. Chor-poya ustiga qurilgan pashshaxonada qatorlashib yotib, turli ertaklar, matallar eshitib, mo'jizaviy dunyoga tushgandek, sehrli olam ichra kezardik. Yulduzlarni sanab, osmon-osmon orzular qilardik.

Buvin bilan yetaklashib, qarindoshlarni ziyorat qilardik. Kinga yordam kerak, qaysi qarindoshning keliniga "ma'naviyat soati" lozim, kim to'y boshlagan, xullas, hammaning holidan xabar olinardi. Turli ko'ngilsizliklar joyida bar-taraf etilardi.

Mahallada ham xuddi shunday: hamma bir-birining holidan xabardor bo'lardi:

— Eson bobo betob ekan, yo'qlab kelinglar!

— Zarbuvi momoga kelini yaxshi qaramayotgan ekan, issiq-sovug'idan xabar olinglar!

— Aka-ukalar gap talashib qolibdi, oqsoqol, uyiga borib xabar oling!

— Usmon yana ichishni boshlabdi, yana uni "oshpichoq"ning tagiga olish kerak!"

— Ta'ziyali uyga qarashinglar... kabi so'zlar quloqqa tez-tez chalinardi.

Hozir bilan bolaligimdagi davmi taqqoslasam, yer bilan osmon qadar farq bor.

Zamondoshlar, biz qachon mehrsiz, e'tiborsiz bo'lib qoldik? O'zimizdan o'zгани o'ylashga nahotki vaqtimiz yo'q? Qarindoshlarni oylab, hatto yillab ko'rmaymiz, ba'zan olamdan o'tganda ham janozasiga

Zamondoshlar, biz qachon mehrsiz, e'tiborsiz bo'lib qoldik? O'zimizdan o'zгани o'ylashga nahotki vaqtimiz yo'q? Qarindoshlarni oylab, hatto yillab ko'rmaymiz, ba'zan olamdan o'tganda ham janozasiga yetib borolmaymiz... Qo'shnilarining qaysi betob, qaysi yordamga muhtoj — buni ham bilmaymiz yoki bilmaslikka olamiz. Aka-ukasidan xabar olmaydi, ota-onadan hol so'rashga vaqt yo'q...

yetib borolmaymiz... Qo'shnilarining qaysi betob, qaysi yordamga muhtoj — buni ham bilmaymiz yoki bilmaslikka olamiz. Aka-ukasidan xabar olmaydi, ota-onadan hol so'rashga vaqt yo'q...

Oilamizda 6 nafar farzand ulg'aydik. Kam-ko'stalarimiz bo'lgandir, lekin onamning noliganini, biror-bir kishiga hasrat qilganini eshitmaganman. Pultli televizor, kir yuvadigan mashina, xullas, hozirgidek shart-sharoitlar bo'lmasa-da, onam barcha ishga ulgurardi, nolish nimaligi bilmasdi. Hozir-chi, shuncha shart-sharoitlar bo'lsa ham, shukronalikdan ko'ra norozilik kayfiyati ko'proq. Ko'p qavatli uyda yashayman, ikki yoki uch farzandli ko'pgina juvonlarning uy ishlaridan hasrat qilganini eshitib qolaman...

Qizaloqlarim uchun sochpopuk olish maqsadida do'konga kirdim. Bir-biridan bejirim sochpopuklarning ko'pligini ko'rib tanlashga qiynaldim. Yodimga yana bolaligim tushdi. Akamning velosi-

pedi bo'lardi, garaj devoriga kameralarini osib qo'yardi. Bir kuni qo'shni qizlar bilan garajga sekin kirib, kamerani olib tezlik bilan tomga chiqdik. Kamerani kesib sochimizga rezina tayyorladik. Ishga berilib ketib akamning yonimizga kelganini sezmay qolibmiz. Biz eski emas, yangi kamerasini kesib qo'ygan ekanmiz. Gapni eshitib hammamiz har joyga qochib ketdik. Bir haftagacha akam qovog'ini uyib yurgandi... Qo'limda qizlarimga bejirim sochpopuklarni olib borarkanman, shu xotiralar xayolimda g'avdalandi...

Vaqtimizni tejaymiz, deb yaqinlarimiz diydoridan, mehridan bebahra qolmaylik. Farzandlarimiz qarindoshlar orasidagi muhabbatni his qilib o'ssin. Zero, bizdan keyin farzandlarimiz bir-biriga oqibatli bo'lsin.

Qo'shnilarini faqat ma'rakalarda emas, biron-bir sababsiz ham yo'qlab turaylik. Ota-onalarimizning "Bolam, qachon kelasan?" degan savoliga bahona axtarguncha, ularni xursand qilish uchun bahona izlaylik, har daqiqani g'animat bilaylik. Farzandlarimiz internet o'yinlaridan emas, osmondagi yulduzlarni ko'rib, ulardan zavq olsin. Televizorga yaqin o'tirmasdan, bobo-buvilarining bag'rida o'tirib, ertaklar tinglab katta bo'lsin.

Shahnoza KARIMOVA,  
Uchquduq tumani BO'SM  
direktor o'rinbosari

## Bo'lajak o'qituvchilar maktabi

Guliston davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus bo'yicha kollejimizda muayyan ishlarni amalga oshirishga kirishdik.

Kollej faoliyati, asosan, maktabgacha ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'is o'quvchi-qizlarga ko'proq musiqa, rassomlik, tasviriy san'at, adabiyot, sport, kompyuter texnologiyalaridan ta'lim beryapmiz. "Yosh ijodkorlar" to'garagi orqali iqtidorli kitobxonlarni saralash, qizlar o'rtasida she'riyatga, hikoya, esse va badiialar yozishga qobiliyatlariga yaqindan amaliy yordam bera boshladik.

O'qituvchi-murabbiy o'z sohasining bilimdoni, ilmiy va o'quv-metodik jihatdan hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Shunga muvofiq, kollej o'qituvchilari oila muammolari, qizlar tarbiyasi va maktabgacha ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan uch yo'nalishda ilmiy

izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, yaqinda pedagogika fanlari nomzodi, dotsent H. Abduraimov rahbarligida o'tkazilgan "Zamonaviy oila modeli" va "Zamonaviy mahalla modeli" loyihalari "Oila" yo'nalishi bo'yicha qilinayotgan ishlarga misoldir.

Qizlar tarbiyasi, ularning ruhiy-jismoniy salomatligi masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Qizlarimiz bo'lajak mutaxassis va oila bekasi, ona ekanligini nazarda tutgan holda, "Alla" ko'rik-tanlovini o'tkazishga kirishdik. Uning loyihasi ko'rib chiqildi va tayyor-garlik ishlari boshlab yuborildi.

Uchinchi yo'nalish bo'yicha esa pedagoglar o'zlarining tadqiqot mavzulari doirasida ilmiy maqolalar tayyorlash, chop et-



tirish va kichik eksperimentlar o'tkazib, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsivalarni ishlab chiqishga kirishganlar.

Ayni paytda qizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarida ham tushunchalar berib borishimiz lozim. Shu sababli, pedagogika va psixologiya fanlarini o'rgatish chog'ida

namunali oila vakillari, nuroniyalar, hoji ota, hoji onalar va imom xatiblar bilan uchrashuvlar o'tkazish, o'qituvchilarning ochiq darslariga ko'pni ko'rgan, tajribali mahalla faollarini taklif etishga ham alohida e'tibor qaratilgan.


Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona", degan naql bor. Shu ma'noda qizlarga yurish-turish, kiyinish,

ayniqsa, salomlashish odobi qanday bo'lishi, shahar ko'chalari, bozor-o'char va transportda o'zlarini qanday tutishlari haqida shunchaki ta'kidlash, ogoh etish tartibida emas, balki tarbiyaviy soatlarda keksa onaxonlar, quda-andalik tajribasiga ega bo'lgan insonlarni ham taklif etish ko'proq samara beradi, nazarimda. Pedagog-olim Muhammadjon Quronov o'zining "Bolam baxtli bo'lsin, desangiz..." kitobida bola tarbiyasida, ayniqsa, qiz bola tarbiyasida ota-ona ibrat bo'lishini, eng muhimi yaxshi xulq, "odobni yuz marta gapirgandan bir marta ko'rsatganimiz ma'qul", deb ta'kidlaydi. Bu fikr biz ustozlarga ham tegishli deb o'ylayman. Darhaqiqat, tarbiya ilmidagi ko'p gapirish emas, ta'sirli va hayotiy xalq maqollari, rivoyatlar, o'g'itlardan foydalanib, amalda ko'rsatib bergan ma'qul.

Rahmatilla SULAYMONOV,  
Sirdaryo pedagogika kolleji  
direktori

# Shiddatli va ajabtovur yoxud dunyodagi eng katta akvabog'larga sayohat

Jazirama yoz faslida chet elga sayohat qiluvchilarning aksariyati miriqib dam olish uchun dengiz bo'ylarini tanlaydi. Ammo mo'tadil havo harorati, toza qumli sohil, palma daraxtlari-yu ekzotik o'simliklardan bahra olish, suvning ba'zan sokin, ba'zan shiddatli shovullashini tinglash uchun faqat dengizga borish shart emas. TripMyDream sayti e'lon qilgan dunyodagi eng yorqin va noodatli akvabog'lardagi chinakam dengiz sohili va attraksionli bog'lar uyg'unligi har qanday insonga bir olam zavq bag'ishlashi shubhasiz.



"Ginnesning rekordlar kitobi"dan joy olgan dunyodagi eng katta akvabog' Yaponiyaning Kyus orolida joylashgan. "Okean gumbazi" deb ataluvchi bog' oroldagi 700 gektar hududni egallagan jahonga mashhur Sigay kurortining eng ko'zga ko'ringan qismi hisoblanadi. Bog' shu turdagi inshootlarning eng ulkani bo'lib, bir vaqtning o'zida o'n minggacha odamni sig'ira oladi.

Sun'iy osmon bilan o'rangan plyajni ko'pchilik "Yerdagi jannat" deb ataydi. Haqiqatan, bu g'aroyib maskanning go'zalligini ta'riflashga til o'jiz. Bu yer-ga keluvchilarning ham ruhan, ham jisman dam olishi uchun barcha sharoit muhayyo. Plyaj bo'ylab yotqizilgan toza oq qum, betakror sharshara hayratni yanada oshiradi. Sun'iy okean suvida hosil qilingan maxsus sun'iy to'liqlarda serfing ishqibozlari o'zini xuddi dengizdagidek his etadi. Cho'milish havzalarida istalgan yoshdagilar uchun bir-biridan qiziqarli suv attraksionlari mavjud.

Qizig'i, bu g'aroyib akvabog' faqat plyaj va suv attraksionlaridagina iborat emas. Bu yerda mehmonlar vaqtini yanada maroqli o'tkazishi uchun restoran, diskoteka va kinoteatrlar mavjud. Xohlovchilar uchun tanani bo'shashtiruvchi jakuzi va spa-basseynlar ham bor. Ayniqsa, oqshom payti bog' hududi haqiqiy eraknamo maskanga aylanadi. Suv to'liqlari va chiroqlar yordamida namoyish etiladigan g'aroyib shoular mehmonlarda unutilmas taassurot qoldiradi. Shundanmi, bu sehrlig' o'sha kishilarni hamisha o'ziga ohanrabodek chorlaydi. Bog' ma'muriyati ham doim sayyohlarni yangidan yangi g'oyalari bilan lo'l qoldirishga odatlangan. Akvabog'lar yordamida mamlakatga keluvchi sayyohlar sonini yanada ko'paytirishni niyat qilgan yapon hukumati esa shunga o'xshash joylarni boshqa orollarda ham barpo etishni rejalashtirgan.

Dubaydagi "Yovvoyi vodi" akvabog'i ham kattaligi jihatidan "Okean gumbazi"dan qolishmaydi. Bog' hududida barcha oila a'zolari uchun mo'ljallangan 30 ta suv attraksionli mavjud. Bu yerdagi "Jumeirah

Scerah" attraksioni eng katta suv arg'img'och'i hisoblanadi. Ushbu haybatli arg'img'och'ning balandligi 32 metr, tezligi esa soatiga 80 km.ni tashkil etadi.

Bog' ko'plab yirik loyihalari bilan mashhur. Bu yerda tez-tez o'tkaziladigan ko'ngilochar tomoshalar odamlarni sira zerkirtirmaydi. Ayniqsa, akvabog'dagi Amerika suv gorkasi va serfing-attraksionlar yozni yanada zavqli o'tkazish istagidagilar uchun ayni muddao.

Ispaniyadagi "Siam Park" haqida ko'pchilik eshitgan. Bu mashhur bog'ni tashkil etishdan oldin uning asoschilari jahonning 50 dan ortiq suvli parklarida bo'lib, so'ng yakuniy xulosaga kelgan. Natijada eng sara g'oyalari jamlanmasidan tashkil topgan bu maskan qisqa vaqtda dunyoning eng yaxshi akvabog'lari qatoridan joy oldi. Ma'lum bo'lishicha, bog'ga tashrif buyuruvchilarning sevimli attraksioni "Singha" bo'lib, uzunligi 24 metrga teng tashkil etadi. 28 metr balandlikdagi "Tower of Power" attraksioni esa deyarli tik qiyalikda joylashgan.

"Siam Park" ekzotika ishqibozlari uchun ham ajoyib maskandir. Ko'pchilik u yerni o'z ko'zi bilan ko'rib hayratlanishni xush ko'radi. Bog'dagi qadimiy haykallar va yashillikka burkangan tabiat ham mehmonlarni befarq qoldirmaydi.

Malayziyadagi "Sunway Lagoon" akvabog'i Janubi-g'arbiy Osiyodagi eng katta ko'ngilochar bog'lardan biri hisoblanadi. 6 qismga ajratilgan bog' hududidan suvli akvabog', attraksionlar bog'i, ekstrim-bog', dahshatlar bog'i, yovvoyi tabiat bog'i hamda bolalar bog'i joy olgan. Bir so'z bilan aytganda, istalgan yoshdagi kishi bu yerda o'z ta'biga mos qiziqarli g'aroyibotlarni topishi mumkin.

Ayniqsa, bog'dagi aylanma va tik gorkalar, 3 metrli to'liqlardan iborat serfing-stansiya, attraksionli sun'iy suv havzasi, 6 ming tonnadan ziyod qum yotqizilgan katta plyaj kishilarning hayratini yanada oshiradi.

AQShdagi "Disney's Typhoon Lagoon" akvabog'i xushmanzara tropik ko'rfa'i va po'rtanasi bilan mashhur.

Bog'ga shu qadar g'aroyib bezak berilganki, inson bir ondayoq bu olam bag'riga singib ketadi. Bu yerda har bir detal, hatto attraksionlar ham umumiy manzara — dengiz va sohil bo'yi ko'rinishini aks ettiradi. Bog' hududi bo'ylab did bilan joylashtirilgan baliq ovlash uskunalari, serfing taxtalari, kema bo'laklari-yu kichik yelkani kemalar haqiqiy dengizni yodga soladi.

Akvabog'dagi asosiy attraksion — "Mayday"ning balandligi besh qavatli uying balandligiga teng. Zamonaviy tilda gorka deb ataluvchi attraksion sharshara va changalzorlar oralab tushib keladi. Shuningdek, bog'dagi sun'iy suv havzasida 2 metrli to'liq uzra serfing uchish, akvalang kiyimida suzish va "Dangasa daryo" attraksionida uchib, bog'ning bor go'zalligini tomosha qilish mumkin.

Germaniya boshqa davlatlardan farqli, o'zining akvabog'lari bilan mashhur emas. Ammo Berlindan 70 km uzoqlikdagi "Tropical Islands" akvabog'i bundan mustasno. Dirijablar tayyorlovchi korxonaga tomonidan barpo etilgan Yevropadagi eng katta ko'ngilochar bog'ning asosiy jihati — ustki qismi yopiqligidir. Bu esa bog'ga yilning istalgan vaqti va har qanday ob-havo sharoitida kelish imkonini beradi.

Tropik o'rmon ko'rinishidagi akvabog'da haybatli attraksionlardan tortib, spa-markazlar, sauna, quyosh vannasi qabul qiladigan joylar, jakuzi, sun'iy plyaj, restoran va boshqalarni topish mumkin. Har kuni tashkil etiladigan kechki shou dasturlari esa mehmonlarga unutilmas taassurotlarni tuhfa etadi. Ammo bu hali hammasi emas. Bog' hududida 25 ta kichik mehmonxonaga, kemping va peshayvonlar mavjud bo'lib, mehmonlar tunni shu yerda o'tkazib, tongda zavqli onlarni yana davom ettira oladilar.

Bog'da Sharq bozorini ham uchratish mumkin. U sutkada 24 soat, dam olish kunlarisiz ishlaydi. Ammo akvabog'ning eng nafis va yoqimli qismi — "Gullar dunyosi" deb ataluvchi tropik o'rmon hisoblanadi. Bu yerda 50 mingdan ortiq noyob gul va o'simliklar o'sadi.

Orlando shahridagi "Disney's Blizzard Beach" akvabog'i ham dunyodagi eng go'zal va katta maskanlardan sanaladi. U mashhur Disney kompaniyasining bog'laridan biri bo'lib, multfilmlardagi kabi eraknamo ko'rinishda yaratilgan. Bu yerda nafaqat bolalar, balki kattalar ham o'zini ertaklar olamiga tushib qolgandek his etadi. Katta sun'iy suv havzalari va attraksionlar esa yozni maroqli o'tkazish imkonini beradi.

Abu-Dabidagi "Yas Waterworld" akvabog'ining 15 ta futbol maydoniga teng hududida mehmonlar uchun 43 ta attraksion xizmati taklif etiladi. Ularning har biri o'zgacha, ammo bog'dagi 5 ta attraksionning dunyoda o'xshashi topilmaydi. Mashhur akvabog'da dunyodagi birinchi gidromagnitli, 238 metr uzunlikdagi suv gorkasi o'rnatilgan bo'lib, u haqiqiy tornadoning o'zginasi. Shuningdek, bog'da qiziquvchilar sun'iy suv havzalaridagi 3 metrli to'liq uzra bodibord va floubordda o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazishlari, 550 metrli suv gorkasida uchib, qo'rquvlariga bas kelishlari, suv to'plaridan otish mashqlaridan zavqlanishlari va boshqa ko'plab ekstremal holatlarni boshdan kechirishlari mumkin.

Indoneziyadagi "Waterbom Bali" akvabog'i, ayniqsa, farzandlari bilan dam olishga chiqadigan oilalar orasida juda mashhur. Bog'dagi 12 ta xilma-xil "kichik tog'" ko'rinishidagi attraksionlar kishida o'zgacha taassurot uyg'otadi. Bu yerda shunchaki dam olish va ekstremal holatlardan uzoqroq bo'lish istagidagilar uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. O'tobda toblanish uchun maxsus o'rindiqlar, favvorali sun'iy suv havzalari, voleybol to'siqlari, uqalash salonlari, qahvaxona va do'konlarning bari oilaviy hordiq chiqarish uchun ayni muddao.

AQShdagi "Noah's Ark" akvaparki nafaqat hududining kattaligi, balki attraksionlar sonining ko'pligi bilan mamlakatdagi eng katta bog' hisoblanadi. Bu yerni bir kunda aylanib chiqishning imkonini yo'qligiga dam oluvchilarning o'zi ham guvoh bo'ladi.

Jahondagi eng uzun suv attraksioni ayni shu bog'da joylashgan. "Qora anakonda" deb ataluvchi ushbu aql bovar qilmas attraksionning uzunligi 400 metr, suv oqadigan aylanmasining chuqurligi esa 21 metrga teng. Ammo bu yerdagi "Vaqlar tuynugi", "Qora dovul", "Bermud uchburchagi", "Qaytmas nuqta" attraksionlari ham kishini vahimaga solishda "Qora anakonda"dan qolishmaydi. Sayyohlar odatda ushbu attraksionlarda uchgach, biroz o'ziga kelib olish uchun uch o'lchamli g'aroyib suv osti kinoteatri hamda 3 metrli sun'iy to'liqlardan iborat 2 ta sun'iy suv havzasida yengil dam olishga chog'lanadi.

Guanjoudagi "ChimeLong Water Park" ham Osiyodagi eng katta akvabog'lardan biri bo'lib, o'z hududiga bir kunda 40 mingdan ortiq insonni sig'iradi. 8 gektarli akvabog' hududida 8 ta suv attraksionli mavjud. Bu yerda uzunligi 5 km.lik dunyodagi eng uzun sun'iy daryoda suzib, bog' hududi, sharsharalar, sun'iy to'liqlar, muzli xona va boshqalarni yaqindan tomosha qilish mehmonlarning eng sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Odamlar suv bo'ylab qayiqda suzib borarkan, yo'li-da uchragan istalgan attraksionlardan birida uchishi mumkin. Shuningdek, bu yerda ham ko'plab attraksionlar, sharsharalar, to'liqli sun'iy suv havzalari va gorka-tornadolalar uchraydi. Ammo boqqa faqat yilning issiq mavsumidagina kelish mumkin. Go'zal maskan tashrif buyuruvchilar uchun o'z eshiklarini apreldan to oktabr oyigacha qadar ochadi.

Braziliyadagi "Beach Park" akvabog'ida afsonaviy "Insano" attraksioni joylashgan. Tarjima qilganda "Telba" ma'nosini anglatuvchi ushbu attraksionda uchishga qaror qilish uchun chindan ham aqldan ozgan bo'lish kerak. Nima uchun deysizmi? Chunki balandligi 41 metr bo'lgan haybatli attraksion deyarli tik qiyalik tuzilishida o'rnatilgan. Tezligi esa soatiga 105 km. Shunday ekan, bu attraksionda uchishdan ko'ra, uni chetdan tomosha qilgan ma'qul. Zero, bog'da undan tashqari ko'plab qiziqarli va ekstremal suv attraksionlari mavjud bo'lib, ularda ham vaqtni maroqli va unutilmas taassurotlarga boy tarzda o'tkazish mumkin!

## IGNATYEV G'ORINING SIRI

Chelyabinsk shahridagi bir guruh tadqiqotchilar madaniy yodgorliklar va boshqa obyektarga qo'l tekizmay turib ularning o'ta aniq uch o'lchamli tasvirini olish imkonini beruvchi g'aroyib usulni kashf etdi. U arxeologlarga shu hududga yaqin Ignatyev g'oridagi noyob belgilar va qoyadagi tasvirlarni o'rganish va saqlab qolish imkonini beradi, deb yozdi "RIA Novosti".

Jahondagi ko'plab mashhur arxitektura yodgorliklari va madaniy meroslar bosqinlar va talofatlar tufayli asl holatini yo'qotgani sir emas. Hozir ham aksariyat obidalarini sayyohlar yetkazadigan zarar tufayli qayta-qayta ta'mirlashga to'g'ri keladi. Ba'zan esa ularni yo'q bo'lib ketishdan asrab qolishning imkonini bo'lmaydi. Shu sabablarga ko'ra so'nggi yillarda arxeologlar insoniyatning madaniy boyliklarini saqlab qolishda uch o'lchamli skaner va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanmoqda.

Rossiyalik olimlar yaratgan noyob usul ham dunyoning istalgan burchagidagi qoyaga chizilgan tasvirlarni oson o'rganish imkonini beradi. Uch o'lchamli tasvirlarni olish uchun bir nechta oddiy uskuna yetarli. "Tayanch nuqtasi", markerlar, maxsus chizg'ich hamda yuqori tiniqlikdagi tasvir qurilishini hosil qiluvchi algoritmlar shular jumlasidan. Tadqiqotchilarning aytishicha, jarayonda aniq fotokamera modelidan foydalanish shart emas. Tasvirlarni hatto mobil telefon yordamida ham olish mumkin.

Suxovilov va uning jamoasi yangi texnologiyani allaqachon amaliyotda qo'llay boshladi. Endilikda olimlar yangi usul yordamida Ignatyev g'orining ilk aniq virtual nusxasini yaratishni rejalashtirmoqda. Aytish




kerakki, bundan yarim asr ilgari topilgan ushbu g'orda qoyaga chizilgan tasvirlarning eng yorqin namunalari mujassam.

## YANGI XAVFLI BAKTERIYA

Amerikalik biologlar go'daklarning ichak mikroflorasida paydo bo'lib, birdaniga ularda astma yoki boshqa allergik kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi bir qancha mikroblarni aniqladi. Tadqiqot natijalari "Nature Medicine" jurnalida chop etildi.

Olimlar go'daklar ichagida astma va allergiya bilan bog'liq holda immunitet rivojlanishining buzilishiga olib keluvchi aniq bakterial yog' molekularini aniqladi. Bir oylik o'nlab bolalarning ichak mikroflorasini o'rgan-gan tadqiqotchilar mazkur bakteriyalar nafaqat immun tizimi "qurilishi", balki allergiya rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishiga amin bo'ldi.

Jarayonda astma va allergiya rivojlanishi kuzatilgan bolalar ichagi mikroflorasida "12, 13-diHOME" deb ataluvchi yog' molekularini katta miqdorda ishlab chiqaruvchi mikroblar borligi aniqlandi. Ushbu nooddiy bog'liqlik sababini tushunish uchun biologlar yangi tug'ilgan sichqonda tajriba o'tkazdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "12,13-diHOME" yog' molekulari immunitet faoliyatiga ta'sir etib, astma va boshqa allergik kasalliklar rivojlanishini faollashtirishi ma'lum bo'ldi.



Hozir olimlar mashhur bifidobakteriyalar turiga kiruvchi ushbu mikroblarning go'dak organizmiga tushish va ishlab chiqarilish jarayonini o'rganmoqda. Tadqiqotchilar ushbu mikroblarning ko'payish sababi aniqlansa, jahondagi allergiya tarqatuvchilar soni sezilarli darajada qisqarishi mumkinligiga ishonmoqda.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

**Mamajanov Boxadirjon Solijonovichning 14.00.22 —** *Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo'yicha "Katta va kexsa yoshdagi bemorlarda bel umurtqalari osteoxondrozini kompleks xirurgik davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018. Tib.62.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 78-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. Tel/faks: (71) 233-10-30, 230-47-99; e-mail: niio-tashkent2016@vandex.ru

**Kanglibayeva Gulal Yerkinovnaning 14.00.08 —** *Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha "Noproliferativ diabetik retinopatiyaning kompleks terapiyasini optimal-lashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy, Toshkent davlat stomatologiya instituti. Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

**Atuxodjayeva Dilora Raximjanovnaning 14.00.10 —** *Yuqumli kasalliklar. 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda brutsellyoz klinik immunologik holatining o'ziga xosligi va uning korreksiyasi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Tib.30.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

**Xamroyev Farxod Sharafovichning 14.00.22 —** *Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo'yicha "Bolalar serebral falaji spastik shakllarida oyoq kontraktura va deformatsiyalarini majmuaviy davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018. Tib.62.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 78-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. Tel/faks: (71) 233-10-30, 230-47-99; e-mail: niio-tashkent2016@vandex.ru

**Yeshmurov Elbrus G'aybullayevichning 06.01.09 —** *O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston sharoitida poliz ekinlarining so'ruvchi zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan himoya qilish tizimini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Q/x.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU. Ma'muriy bino, 1-qavat, anjumanlar zali. Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

**Turayeva Dilfuza Baxtiyorovnaning 06.01.05 —** *Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Avstraliya g'ozna namunalarining yangi seleksion ashyo yaratishdagi ahamiyati" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Q/x.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU. Ma'muriy bino, 1-qavat, anjumanlar zali. Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

## DAVR MUAMMOSIDAN OGOH ETIB...

Toshkent shahrida Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining 2019-yil 22-martdagi tegishli bayonnomasi, "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish borasida 2019-2020-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini" hamda "Odam savdosi — davr muammosi" targ'ibot loyihasini amalga oshirish doirasida bir qator amaliy tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

Tadbirlar tuman hokimliklari, Xotin-qizlar qo'mitalari, Respublika "Istiqbolli avlod" ijtimoiy-axborot markazi bilan hamkorlikda o'tkazilayotir.

30-iyul — Jahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Toshkent shahar hokimligi, Xotin-qizlar qo'miti tomonidan shahrimizning barcha tumanlarida targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Tadbirlarda odam savdosi inson sha'ni, qadr-qimmat, salomatligi, uning jamiyatdagi o'rni, kelajagi va taqdiriga jiddiy tahdid soluvchi illat ekaniga alohida e'tibor qaratildi. Yuzaki qaraganda mo'ayyina daromad, to'kinlikdek soxta va sarob va dalar beruvchi ushbu muammo aslida inson umri, oilasi, o'zligiga raxna solishi allaqachon o'z isbotini topgan.


Xotin-qizlar qo'mitasi faollari, psixologlar, huquqshunoslar ishtirokidagi ushbu uchrashuvlarda bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida har bir fuqaroni ogohlikka chorlash muhimligi, keyingi yillarda qayd etib borilayotgan o'ta afsuslanarli va millatimizga mutlaqo yarashmaydigan holat — chaqaloqlar savdosiga qarshi kurashda hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

N.USMONOVA,  
O'ZA muxbiri

# Ixtirochilar tanlovi

## ("Galaktikada bir kun" ilmiy-fantastik qissasidan parcha)

2036-yil 25-iyun. Qushlarning deraza ortidan kelayotgan chug'ur-chug'uri, onda-sonda uchib o'tayotgan aeromashinalarning guvullangan tovushi tong otganidan darak bersa-da, Ahmad bunga parvo qilmas — shirin tushlar bog'ushida edi. Mana, bir necha oydirki, u bir tushni qayta-qayta ko'radi. Bolakay tushida o'zi ixtiro qilgan qurilmaga minib, cheksiz koinot bo'yab sayohatga chiqar, turli sayyora va yulduzlarga uchardi. Masalan, kecha ko'rgan tushida Marsning o'nqir-cho'nqir yuzasida o'zga sayyoraliklar bilan futbol o'ynagan emish. Bugun esa Saturnning yo'ldoshi Titanga qarab uchgan... Ana, uning kemasi Titanning bo'ronli atmosferasini yorib o'tmoqda. Kema atmosfera bosimiga arang dosh berar va juda qattiq silkinardi. Shu payt abjir fazogirimiz zudlik bilan qo'nish kerakligini angladi...



— Ahmad, turaqol, o'g'lim...

Oyisining ovozi Ahmad cho'chib uyg'ondi. Oyim yana ozroq uyg'otmay turganida, Titanni ham zabt etardim-a, deya afsuslandi.

— Nima, bugun qanaqa kunligi esingdan chiqdimi, o'g'lim? — hayron bo'lib so'radi oyisi.

Ahmad miyasida chaqnagan fikrdan sakrab turib ketdi: "Axir, bugun yosh ixtirochilar tanlovi bo'ladi-ku!"

Bolakay yuz-qo'lini yuvib oshxonaga chiqqanida dadasi va oyisi nonushta qilib o'tirganini ko'rdi. Ularga salom berib, dasturxonaga yaqin o'tirdi.

— O'g'lim, tezda nonushta qilib ol. Kech qolmanglar tag'in, — dedi dadasi.

— Ha, bunaqa joylarga vaqtda borish kerak, — deya ma'qulladi oyisi.

Nonushtadan so'ng duo qilindi. Keyin Ahmad o'zi yasayotgan fazoviy kemandi chizmalari va kichik nusxasini olib, oyisiga ergashdi.

Tanlov o'tkazilayotgan maktabga yetib kelishganida ishtirokchilarning deyarli hammasi yig'ilib bo'lgandi. Ahmad ixtirochi tengdoshlarini ko'rib biroq xavotirga tushdi. Chunki bolalar judayam g'aroyib qurilmalarni yasagan ekan-da. Ana, ishtirokchilardan biri yasagan robot raqsga tushayapti. Yana biri esa yaroqsiz suvni tozalaydigan qurilma ixtiro qilbdi, qoyil-e! "Axir, mening ixtiroim hali faqat chizmalardan iborat. Rosa kulgiga qoladigan bo'libman-da", — degan o'y o'tdi xayolidan.

Aslida, Ahmad dunyoga dong'i ketgan olimlarning tushiga ham kirmagan qurilmani ixtiro qilgan edi. Lekin u bunga boshqalarni ishonirish u yoqda tursin, hali o'zini ham to'la ishonitira olmagan-

di. To'g'ri-da, hali uning chizmalarini biror mutaxassis ko'rmagan. Faqat fizika o'qituvchisi chizmalarni ko'zdan kechirib "Ahmad, sen dahosan!" degan, xolos. Ammo fizika o'qituvchisi hech nimani tushunmaganini Ahmad juda yaxshi bilardi. Lekin o'sha o'qituvchi Ahmadni "dahosan" deganida adashmaganini rost. Chindan ham, bolakay favqulodda zehni va idrok sohibi edi. Yosh bo'lishiga qaramay fizika, matematika, kimyo va astronomiya fanlarini professorlar darajasida o'zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob qobiliyatli bolalar yuz, balki ming yilda bir marta dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko'rgan narsasini xotirasiga xuddi videolavhaday muhr-lab olar, kitob matnlarini so'zma-so'z emas, balki sahifaga bir qarashda o'qib olardi. Ammo Ahmadning bu iqtidoridan ko'pchilik bexabar edi. Maktabdagi aksar o'qituvchi va o'quvchilar esa uni xayolparast, mahmadona deb bilishardi.

— O'g'lim, sen albatta g'olib bo'lasan, men bunga ishonaman, — dedi o'g'lidagi hayajonni sezgan ona. — Faqat hakamlarga o'z g'oyangni hayajonlanmay, dona-dona qilib tushuntir. Bu ixtironi amalda ko'rsatish uchun juda ko'p mablag' kerak, shunga hozircha faqat chizmalarini olib keldim, deb ayt.

Uzoq kutilgan tanlov boshlandi, bolalar birin-ketin sahnaga ko'tarilib, yig'ilganlarga o'z ixtirolarini tanishtira boshladi. Birinchi bo'lib Ibrohim ismli bola sahnaga chiqdi.

— Men judayam ko'p ixtirolar qilganman, — deya jiddiy ohangda gap boshladi u. — Hozir mening robotlarim qishloq xo'jaligida fermerlar tomonidan ishlatilmoqda.

— Xo'sh, Ibrohim, bu safar bizni nima bilan lol qoldirasiz? — deya so'radi katta ko'zoynak taqib olgan hakamlardan biri.

Ibrohim biroq taraddudlandi. Ko'krak kerib turishidan uning biror olamshumul ixtiro qilganini payqash qiyin emasdi.

— Marhamat, Bog'bonrobot bilan tanishing, — dedi u qo'llarini ko'tarib.

Sahnaga to'rt g'ildirakli, bir qarashda katta changyutkichini eslatadigan droid chiqib keldi. Bog'bonrobot sahna bo'yab turli harakatlar qilarkan, yosh ixtirochi g'oz turib unga ta'rif bera boshladi:

— Bog'bonrobot yirik bog'larda ishlash uchun yaratilgan. Unga daraxtlarni sug'orish, hashoratlardan himoya qilish va hosilni yig'ib olish dasturlari o'rnatilgan.

Yig'ilganlar hayrat bilan Bog'bonrobotni kuzatishar, ularning "Otangga rahmat!", "E, qoyil!" degan gaplari eshitilardi.

Shundan so'ng sho'r suvni chuchuklashtirib beradigan filtrlovchi qurilma, quyosh nuridan energiya olib ishlaydigan qozon, bemorlarga qaraydigan robot va xatosiz yozadigan ruchkalar namoyish etildi. Nihoyat, bosh hakam:

— 7-raqamli ishtirokchi Ahmad Odilbek o'g'li, marhamat, keling, — deb qoldi.

Ahmad qattiq hayajon bilan sahnaga chiqib keldi. Hammaning nigohi unga qadali turganini his qilarkan, hayajoni yanada ortdi.

— Ismim Ahmad, yoshim o'n ikkida, — deya nihoyat so'zga kirdi u. — Men sizlarga sayyoralararo uchar qurilma... — zalda gu-u-v-v etib boshlangan g'ala-g'ovurdan Ahmadning gaplari eshitilmay qoldi. "Nahotki, 12 yoshli bola fazo kemasi yasagan bo'lsa!" derdi tanlovga kelganlar.

Bosh hakam o'tirganlarni tinchlantirmoqchi bo'lib o'midan turdi:

— O'rtoqlar, ishtirokchini eshitaylik. Savollar bo'lsa, keyin beramiz.

Bu payt Ahmadning tanasidan sovuq ter chiqqan boshladi:

— Men hozircha bu qurilmaning chizmalarini olib kelganman...

U shunday deyishi bilan zalda yana g'ala-g'ovur boshlandi. Ixtirochi bolalarning "E, shunga shunchami?!", "Fantastik xayollarim demaysanmi, o'rtoq?!" kabi gaplari Ahmadga ham eshitilardi.

— Mana bu chizmada, — Ahmad titrayotgan qo'llarini monitoridagi birinchi chizmaga uzatdi, — uchar qurilmaning umumiy ko'rinishi tasvirlangan.

Birdan zalga sukunat cho'kdi. Endi hamma jon qulog'i bilan Ahmadni eshita boshlagandi.

— Ko'rib turganingizday qurilmani odatiy raketa eltuvchisi fazoga olib chiqadi. Shundan so'ng qurilma raketadan ajralib, sayyoralararo harakatni boshlashi mumkin.

Chizmadagi suratlariga qarab bir nimani tushunish qiyin edi. Chunki unda turli matematik belgi va formulalar, geometrik shakllar g'ij-g'ij edi. Ammo bir qarashda bu narsalar malakali muhandis tomonidan tayyorlanganga o'xshardi.

— Uchar qurilma raketadan ajralib, — deya davom etdi Ahmad, — kam energiya evaziga fazodagi gravitatsiya to'liqiga tushib oladi. Gravitatsiya, ya'ni butun olam tortishish qonunlariga ko'ra, buni amalga oshirish mumkin. Fazoda gravitatsiyaning xuddi daryoga o'xshash to'liqlari bor. Mening kemam ana shu to'liqiga tushib olsa bas, fazoning istalgan nuqtasiga katta tezlikda uchib ketaveradi. Hech qanday dvigatel kerak emas. — U shunday deb monitorda o'zining hisob-kitoblari tushirilgan chizmani ko'rsata boshladi. — Kvant fizikasining asoslari shuni ko'rsatadi...

— Shoshma, bolakay! — deya Ahmadning gapini ko'zoynak taqqan hakam to'xtatdi. — To'g'risi, bu chizmalar va sening gaplaringga tushunib bo'lmayapti. Sodda qilib aytganda, bu kema fazoda o'z-o'zidan, hech qanday raketa dvigatilisiz harakatlanadi, shundaymi?

— Xuddi shunday! Mana, bizning Yer sayyoramiz ham Quyosh atrofiga hech qanday dvigatelsiz soniyasiga 30 km tezlik bilan uchib yuradi-ku. Bu to'pponchadan otilgan o'qdan 100 marta tezroq degani, axir!

— Buning iloji yo'q! — dedi o'tirganlar orasidan birov baland ovozd.

Oxirgi qatordan kelgan bu ovoz egasini izlab hamma orqaga o'girildi. U past bo'yli, juda ozg'in va xunuk bir odam edi.

— Bolakay, nisbiylik nazariyasiga ko'ra, sen aytgan qurilmani fazoga uchirish mumkin, — deya tushuntira boshladi o'sha pakana. — Lekin uni boshqarib bo'lmay qoladi. Aniqrog'i, yerlik muhandislarining malakasi hali bunday qurilma yaratishga yetmaydi.

O'zicha bilag'onlik qilayotgan bu odamga hamma taajjublanib qarab qoldi. Bolalar esa yaxshi boshlangan tanlovning bunaqa tus olganiga ko'nikolmay qovoqlarini uyib olishgandi.

— Nega endi?! — deya e'tiroz bildirdi Ahmad.

— Nega desang, yerliklar atom fizikasi va gravitatsiya asoslarini hali to'la tushunmaydi. Balki ellik yoki yuz yildan so'ng bu boradagi bilimlaringiz ortib qolar...

— Bo'ldi, bas qilinglar, — deya asabiyl holda gapni bo'ldi ko'zoynakli hakam. — Yerliklar, yerliklar, deysiz... Nima, siz osmondan tushganmisiz?!

Hakam shunday dedi-yu, bir nuqtaga qarab qotib qoldi. Chunki hozirgina odamlar orasida unga angrayib qarab turgan mahmadona odam xuddi yer yutganday g'oyib bo'lgandi. U ko'zoynagini olib, ko'zlarini ishqalab tag'in razm soldi — pakana odam haqiqatan ham yo'q edi. Hakam chuqur xo'rsinib joyiga o'tirarkan, stoldagi suvga qo'lini uzatib bir-ikki qultum ichdi. So'ng ayb ish qilib qo'ygan boladay boshini egdi.

O'sha kuni Bog'bonrobot ixtirochisi Ibrohim g'olib bo'ldi. Ahmadni bo'lsa eslab ham qo'yishmadi. U oyisi bilan uyga qaytarkan, yo'l bo'yi churq etmadi. Bolakay qattiq xafa bo'lgandi.

Sa'dullo QURONOV

(Davomi keyingi sonda.)

## MTMlarga qamrov yanada oshadi

O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda Maktabgacha ta'lim vaziri Agreppina Shin ishtirok etdi.

2019-yilning 8-may kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va bu asosida ishlab chiqarilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan edi. Ushbu hujjatlarda 2030-yilga borib bolalarni maktabga qamrab olishni 40,05 foizdan 80,8 foizgacha ko'tarish rejalashtirilgan. Anjumanda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan kelgusida MTMlar quvvatini oshirish va 2021-yilgacha yangi bog'chalar barpo etish, davlat-xususiy sherikligi asosida chekka hududlarda ham maktabgacha ta'lim muassasalari sonini oshirish ko'zda tutilgani ta'kidlandi.

— "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" har bir shahar va tuman kesimida MTMlar soni va bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha aniq ko'rsatkichlarni belgilab bergan birinchi hujjatdir, — dedi Maktabgacha ta'lim vaziri Agreppina Shin. — Bu qadam faoliyatimizning shaffofligi va obyektivligini ta'minlaydi. Chunki muayyan xulosalar chiqarish uchun erishilgan ko'rsatkichlarni qiyoslash kifoya. MTMlar yetishmasligi muammosini hal etish bilan bir qatorda yaqin yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga ham e'tibor qaratiladi. Biz pedagoglar sonini oshirish, shuningdek, xodimlarni saralash, tayyorlash va malakasini oshirishga yangi yondashuvlarni tatbiq qilish ishlarini davom ettiramiz. MTV vakillari mas'ul xodimlar faoliyatini har daqiqada nazoratda tutish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun joylarda malakali, vijdonli insonlar ishlashi biz uchun muhim.

Anjumanda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'rsatib o'tildi. Jumladan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, yangi MTMlar qurish, eskilarini rekonstruksiya qilish, 1 yillik bepul maktabga tayyorlov jarayonini tashkil etish, mashg'ulotlarga innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, boshqaruvni takomillashtirish, kadrlar masalasida yangicha yondashuvlarni tashkil qilish, MTMlarda bolalarni sog'lom ovqatlanirish masalalari konsepsiya doirasida amalga oshirilishi ma'lum qilindi.

Tadbir davomida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Niginabonu SHUKUROVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

## Sportga oshno yoshlar

Jizzax shahridagi 16-maktabda "Sport — bizning do'stimiz" shiori ostida musobaqa tashkil etildi. Unda maktablarning sport jamoalari shaxmat, shashka, stol tennisi, voleybol (qizlar) va mini futbol bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Besh muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadida tashkil etilgan musobaqa chinakam sport festivaliga aylandi. Iqtidorli o'quvchilardan iborat jamoalarning bari birinchilik uchun qizg'in kurash olib bordi. Ayniqsa, sun'iy qoplamali maydonda kechgan bellashuvlarda bo'lajak futbolchilar katta mahoratga ega ekanligini namoyon etdi. Yakunda barcha tengdoshlarini ortda qoldirgan 17-maktabning mini futbolchilari bosh sovrinni qo'lga kiritdi.

Voleybol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar ham qizg'in bahslarga boy bo'ldi. Jamoalar orasida 13-maktab o'quvchilarining ushbu bellashuvga puxta tayyorgarlik ko'rganiga yaqqol ko'zga tashlandi. Bu maktab jamoasining aksariyat sportchilari voleybol bo'yicha viloyat terma jamoasi tarkibida o'ynaydi. Muqaddas Donaboyeva, Laziza Abduazizova, Sevinch O'rolova kabi o'quvchilar bir necha bor O'zbekiston chempionatida ham qatnashgan. Shundanmi, jamoa vakillari musobaqalarda peshqadamlikni hech kimga bermadi.

Turnir davomida faol ishtirok etgan Shahriyor Gulboyev, Mirsulton

G'aniqulov, Hojiakbar Choriyev kabi yosh charm to'p ustalari ham o'z mahoratlarini bilan boshqalardan ajralib turdi.

O'ziga xos festival tarzida o'tkazilgan sport bayrami turli yoshdagi bolalarni qamrab oldi. Uning eng yosh ishtirokchilaridan biri — 17-maktabning 1-sinf o'quvchisi Arslon Ziyodullayev shashka musobaqalarida faol qatnashib, "Eng yosh sportchi" nomiga sazovor bo'ldi. Bo'lajak chempionning onasi Sayyora Mamatqulova farzandining shashka to'garagida mahoratini oshirib borayotganidan mamnun.

Qizg'in bellashuvlarga boy tarzda o'tgan stol tennisi bahslarida esa Ravshan Hayitboyev, Iskandar Toshmurodov, Farrux Farmonov sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Abdusattor SODIQOV,  
"Ma'rifat" muxbiri

### Boks

## Sakkiz bokschimiz yarim finalda

Rossianing Kaspiysk shahrida boks bo'yicha o'tayotgan an'anaviy xalqaro xotira turnirida chorak final uchrashuvlari o'tkazildi.

Chorak final musobaqalarida 52 kilogramgacha vazn toifasida ishtirok etayotgan ham yurtimiz Shahobiddin Zo'irov ozarbojyonlik Mirmehdi Mehdizodani birinchi raunddayoq nokoutga uchratdi. Shuningdek, ushbu vaznda yana bir charm qo'lqop ustasi Abror Qodirov turkmanistonlik Ixlas Glischanovni 5:0 hisobida yengdi.

Shuningdek, o'z vazn toifalarida Abdulhay Shorahmatov, Otabek Xolmatov, Bilol Mirzarahimov, Akmurad Gaffarov, Saidjamshid Jafarov raqiblari ustidan g'alaba qozonib, yarim final yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Eslatib o'tamiz, vazni 91 kilogramdan ortiq bo'lgan Lazizbek Mullajonov qur'a natijasiga ko'ra, musobaqani yarim finaldan boshlaydigan bo'ldi.

Shu tariqa ushbu turnirda 8 nafar bokschimiz musobaqaning yarim finalida ishtirok etadi.

J.TOSH XO'JAYEV,  
O'ZA muxbiri

## Izlanishlar izsiz ketmaydi

Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport maktabida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga imtiyozli qabul qilingan 28 nafar sportchi yoshga guvohnoma topshirish marosimi o'tkazildi.

— Shaxmat bo'yicha O'zbekiston va Osiyo chempionatlarida sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritdim, — deydi Mohim Ozazmuhammadova. — Mana bugun mehnatlarim va izlanishlarim o'z samarasini berib, talaba bo'ldim. Kelajakda yaxshi bilim olib, o'z ustimda yanada ko'proq shug'ullanib, yurtimiz bayrog'ini bundan ham baland ko'tarishga harakat qilaman.

— Sportchi yoshlarning 17 nafari Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetiga, 10 nafari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutiga, 1 nafari esa O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialiga o'qishga qabul qilindi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bo'lim boshlig'i Sarsenboy Rao'ajov. — Ulardan umidimiz katta. Oliyog'onda ham sportni hamroh tutib, Osiyo va jahon chempionatlari, olimpiada o'yinlarida ishtirok etib, yuksak natijalarga erishishiga ishonamiz.

Nesibeli MAMBERTIRZAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

## Otam, onam va men

Nukus shahrida "Otam, onam va men — sportchi oila" musobaqasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda musobaqaning hududiy bosqichlarida g'oliblikka erishgan oilalar bellashdi.

Musobaqa to'stiqlar oshish estafetasi, mohir hujumchi, arqon tortish kabi shartlar bo'yicha o'tkazildi.

Musobaqa yakunida Nukus shahar "Qutli makon" mahalla fuqarolar yig'inidan Mars Habibullayevning oilasi g'olib bo'ldi. Sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan tayyorlangan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.





Maqsad HABIBULLAYEV (O'ZA) olgan suratlar.

# «Kamalak»da quvnoq yoz

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani "Qizilyozi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan viloyat kasaba uyushmalariga qarashli "Kamalak" bolalar dam olish oromgohida bu yilgi mavsumda 2000 nafar o'g'il-qiz dam oladi.

Shu kunlarda oromgohda 400 nafar kam ta'minlangan oila farzandlari hordiq chiqarmoqda. Oromgoh umumiy maydoni 10,2 gektarni tashkil qiladigan tog'li va so'lim go'shada joylashgan. Bu yerda bolajonlar miriqib dam olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.



Hotam MAMADALIYEV (O'za) olgan suratlar.



## Ta'til maroqli o'tmoqda

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi "Qizilqumtsement" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Shabboda" bolalar oromgohida 300 nafardan ortiq o'g'il-qiz hordiq chiqarmoqda.



Oromgohda mohir qo'llar, tasviriy san'at, sport, ingliz tili to'garaklaridan tashqari, 1 ming 200 kitob fondiga ega kutubxona ishlab turibdi.

Dam olish maskanida barcha qulayliklar yaratilgan. Zamonaviy tibbiyot punktida malakali shifokor-



lar tomonidan bolajonlar sog'lig'i doimiy nazoratda. Bundan tashqari, har bir kun esda qolarli, qiziqarli bo'lishi uchun "Eskicha ertak yangi talqinda", "Yangi yil ertagi", "Ertakona qahramon libosi" kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Siroj ASLONOV (O'za) olgan suratlar.



# Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-829. Tiraj: 11782. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabulxonaga — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi muharrir:** Zilola Maclatova.  
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi, Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — 23.05 Topshirildi — 23.55

123 56